

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TAHLIM
VAZIRLIGI**

NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

Qo'lyozma huquqida

Usmanov Islomjon

Sanoat mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish muammolari

Mutaxassislik: 5230100 – “Iqtisodiyot”

Bakalavr akademik darajasini olish uchun

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ish ko'rib chiqildi va himoyaga ruxsat etildi: _____ Kafedra mudiri: i.f.n., dotsent R.B.Ismoilov « ____ » « ____ » 2015 yil	Ilmiy rahbar: _____ i.f.n. dotsent I.Sobirov « ____ » « ____ » 2015 yil
Fakul'tet dekani: _____ i.f.n. dotsent K.J.Matkarimov « ____ » « ____ » 2015 yil	

Namangan-2015 yil

M U N D A R I J A

Kirish

I-bob. Sanoat korxonalarida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni ob'ektiv zarurligi va ahamiyati

1.1-§ Iqtisodiyotni rivojlantirishda sanoatning o'ziga xos xususiyatlari

1.2-§ Sanoat korxonalarida mahsulotlar ishlab chiqarishda raqobatbardoshlik va unga ta'sir etuvchi omillar

II-bob. "MEXMASH" MCHJ da sanoat mahsulotlar raqobatbardoshligi tahlili

2.1-§. "MEXMASH" MCHJ ning moliya-xo'jalik faoliyati va asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili

2.2-§. "MEXMASH" MCHJ da raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish holati tahlili

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida sanoat korxonalari mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish yo'nalishlari

3.1-§. Sanoat korxonalari mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirishda fan-texnika yutuqlaridan samarali foydalanish imkoniyatlari

3.2-§. Sanoat korxonalarida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish va ularning samaradorligini oshirish yo'llari

Xulosa va takliflar

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Ilovalar

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi.

Respublikamiz o'z mustaqilligiga erishgach, barcha sohalarda keng ko'lamli tub iqtisodiy islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Barcha sohalarda katta o'zgarishlar amalga oshirilayotgan hozirgi davrda bozor munosabatlariga asoslangan erkin iqtisodiy tizimga asta-sekinlik bilan bosqichma-bosqich o'tib borilmoqda. Ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish, fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish, aholining turmush tarzini yaxshilashga qaratilgan ulkan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar ro'y bermoqda.

Hozirgi iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiya qilish sharoitida sanoat korxonalarini texnik va texnologik jihatdan yangilashga hamda ularni barqaror rivojlantirish masalalariga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Mamlakatimizda Prezidentimiz I.A.Karimov rahnamoligida chuqurlashgan inqiroz sharoitlarida barqaror o'sish surhatlarining saqlanib qolishi esa tanlangan mustaqil taraqqiyot yo'limiz va unga muvofiq amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosatimizning nechog'liq to'g'ri ekanligini yana bir bor tasdiqlamoqda.

2014 yilgi iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor vazifalarini amalga oshirish natijasida iqtisodiy rivojlanishning barqaror yuqori surhatlari, makroiqtisodiy mutanosiblik, aholi hayot darajasining barqaror o'sishi va mamlakatning jahon bozoridagi mavqeini mustahkamlash ta'minlandi.

Prezidentimiz mahruzalarida o'tgan yilda erishilgan natijalar birma-bir sarhisob qilinib, barcha ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarga alohida to'xtalib o'tildi. Jumladan, mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 8,1 foiz, sanoat ishlab chiqarish hajmi 8,3 foizga, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi 6,9 foiz, kapital qurilish 10,9 foiz, chakana savdo aylanmasi hajmi 14,3 foizga oshganligi ehtirol etilib, ishlab chiqarilgan mahsulotlarning qariyb 70 foizini yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan tayyor tovarlar tashkil etganligi, iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi 2014 yilda 9,4 foiz, shu jumladan, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 8,7

foiz, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 10 foizga o'sganligi, inflyatsiya darajasi esa yil yakunlari bo'yicha 6,1 foizni tashkil etganligi alohida ta'kidlab o'tildi.¹

O'tgan yili soliq yuki 20,5 foizdan 20 foizga, daromad solig'i stavkasi esa 9 foizdan 8 foizga kamaytirilgan bo'lsa-da, davlat byudjeti yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,2 foiz profitsit bilan bajarildi.

Banklar tomonidan faqat ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va texnologik yangilash dasturlarini moliyalashtirishga yo'naltirilgan kreditlar hajmi 2013 yilga nisbatan 1,2 barobar, aylanma mablag'larni to'ldirish uchun ajratilgan kreditlar esa 1,3 martadan ziyod oshganligini, o'tgan 2014 yilda 500 dan ziyod yangi korxona, birinchi navbatda, kichik biznes subhektlari eksport faoliyatiga jalb etildi. Tashqi savdo balansidagi ijobiy salg'do 180 million dollarni tashkil qildi, mamlakatimizning oltin-valyuta zaxiralari 1 milliard 600 million dollarga ko'payganligini ta'minlanganligini ta'kidlandi.

Yuqoridagi erishilgan ijobiy natijalar shuni ko'rsatmoqdaki, bugungi kunda mamlakatimiz aholisini sifatli sanoat mahsulotlari bilan ta'minlash, mamlakatda, xususan viloyatimizda sanoati korxonalari faoliyatini jadal rivojlantirish masalalarini hal etish katta dolzarb ahamiyatga ega. Bunga ko'p jihatdan xuquqiy bazani mustahkamlash, iqtisodiyotning mazkur sektori uchun qulayliklar yaratish masalalariga jiddiy e'tibor berilayotgani tufayli erishiladi. SHu nuqtai nazardan hamda ushbu masala hozirgi islohotlarni chuqurlashuvi sharoitida juda dolzarb bo'lganligidan ushbu mavzuni bitiruv malakaviy ishiga mavzu sifatida tanlab olindi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi.

Mamlakatimizda va xorijiy mamlakatlardagi yetakchi iqtisodchi olimlar mazkur masala bo'yicha qator tadqiqotlarni amalga oshirganlar.

¹ «2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir» – Prezident Islom Karimovning 2014 yilning asosiy yakunlari va 2015 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi mahruzasi // Xalq so'zi, 2015 yil 17 yanvar.

Jumladan, iqtisodchi olimlardan M.Al'bert, F.Xedouri, V.Kim, R.Rumyantseva, V.CHjen, S.G'ulomov, M.SHarifxo'jaev, V.SHepelev, M.Rasulov, T.SHarifulina, V.Peznev, SH.Karmisheva, E.Maxmudov, SH.Zaynitdinov, P.Tursunxojaev, A.Ortiqov, A.Utkin, G.Savitskaya, N.Zaytsev, V.Dubrovskiy, F.Ahmedov, A.O'razbekov va boshqalar ushbu soha rivoji bo'yicha qator ishlarni bajarganlar va ma'lum darajada iqtisodiy samaraga erishganlar. Amalga oshirilgan tadqiqotlar va izlanishlarda mazkur masalaga ham katta e'tibor qaratilgan. Ayniqsa, hozirgi iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitini hisobga olgan holda ushbu masala yanada jiddiy e'tibor qaratishni talab etadi.

Muammoning hozirgi vaqtda dolzarbligini inobatga olib, uni bitiruv malakaviy ishiga mavzu sifatida qabul qilindi, quyidagi maqsad va vazifalar belgilandi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi hozirgi iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida sanoat korxonalarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini va raqobatbardoshligini oshirish, bunday turdagi mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish hamda shu orqali sanoat korxonalari faoliyatini jadal rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

Ushbu maqsadga erishish uchun bitiruv malakaviy ishida quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda sanoatning o'ziga xos o'rni va va tashkiliy-huquqiy asoslarini nazariy jihatdan yoritib berish;
- Sanoat korxonalarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish va unga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash;
- "MEXMASH" MCHJ ning moliya-xo'jalik faoliyati va asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarini tahlil qilish;
- "MEXMASH" MCHJ da ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar raqobatbardoshlik holatini o'rganish;

- Sanoat mahsulotlari raqobatbardoshligini oshirishda ilm-fan va yangi samarali texnika-texnologiyalardan samarali foydalanish hamda amaliyotga joriy etish;

- Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida sanoat korxonalari mahsulotlari raqobatbardoshligini oshirishda ilg'or zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni joriy etish va hokazo.

Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti.

Namangan viloyati "MEXMASH" MCHJ bitiruv malakaviy ishining ob'ektini tashkil qiladi.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va uslubiy asoslari.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va uslubiy asoslari qilib Prezidentimiz I.A.Karimovning mahruza va asarlarida bayon etilgan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni amalga oshirish bo'yicha ilgari surilgan fikr-mulohazalar va asosiy yo'nalishlar, O'zbekiston Respublikasining Qonunlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, iqtisodchi olimlarning ushbu yo'nalishda amalga oshirgan ilmiy ishlari, xo'jalik yurituvchi subhektlarda erishilgan ilg'or tajribalar olindi.

Bitiruv malakaviy ishining xajmi va tuzilishi.

Bitiruv malakaviy ishi kirish, uchta bob, xulosa va takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatidan iborat.

I-bob. Sanoat korxonalarida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni ob'ektiv zarurligi va ahamiyati

1.1. Iqtisodiyotni rivojlantirishda sanoatning o'ziga xos xususiyatlari

Ma'lumki, bozor iqtisodiyotining amal qilish mexanizmi ko'plab asrlar davomida tarkib topib, shakllanib, hozirgi davrda madaniylashgan shaklni kasb etdi va ko'plab mamlakatlarda hukmron iqtisodiy tizimga aylandi. Mamlakatimizda mustaqillik yillarida bozor iqtisodiyotining samarali amal qilishi uchun muhim shartlardan biri, ishlab chiqarishning mustaqilligi, tadbirkorlikning erkinligi, resurslarning erkin almashinuvidan iborat.

Respublikamiz iqtisodiyotini jadal rivojlantirishda sanoatning o'ziga xos o'rni bor. Sanoat – moddiy ishlab chiqarishning eng yirik yetakchi tarmog'i bo'lib, unda mehnat qurollari (vositalari), mehnat buyumlari va xalq iste'mol tovarlarining ko'pchilik qismi yaratiladi. Unda mashina va mexanizmlarning barcha turlari, bino va inshootlarning konstruktiv elementlari ishlab chiqariladi, yer osti boyliklarini qazib olish amalga oshiriladi, mineral, o'simlik va hayvon xomashyosiga ishlov beriladi hamda keng iste'mol mollari tayyorlanadi.

Mustaqillikning afzalliklari va davlat iqtisodiy siyosatining yetakchilik rolini yanada oshirmoqda. Oliy Majlisning qonunlari, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari eng avvalo, sanoat sohasida amalga oshirilmoqda va sezilarli samara bermoqda.

Sanoat tabiatda uchraydigan moddiy boyliklarni qazib chiqarish va tayyorlashni, ularni va qishloq xo'jaligida yetishtirilgan mahsulotlarni qayta ishlashni o'z ichiga qamrab oladi. U barcha xalq xo'jaligi tarmoqlari uchun ishlab chiqarish kuchlarining asosiy elementlaridan biri hisoblangan jamiyatning tabiat ustidan hukmronligini birmuncha orttiradigan, fan-texnika taraqqiyotini belgilaydigan, inson mehnatining unumdorligini oshirishga imkon beradigan, mehnat va ishlab chiqarish qurollarini yaratadigan sohadir.

Sanoat taraqqiyoti ishlab chiqarish kuchlarining bir tomonlama rivojlanishiga xotima beradi, mamlakat va uning ajralmas qismi bo'lmish viloyatlarning tabiiy boyliklaridan, xomashyo va mehnat resurslaridan kengroq va har tomonlama foydalanish imkoniyatini yaratib beradi.

Sanoatning vujudga kelishi va rivojlanishi mehnat taqsimotining o'sishi, ishlab chiqarishni differentsiyalash va intensivlashtirish bilan chambarchas bog'liq.

Sanoat iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini ishlab chiqarish vositalari, mehnat qurollari bilan ta'minlaydi. Milliy iqtisodiyot, fan, maorif, madaniyat, sog'liqni saqlash, sport, turizm va boshqa sohalar rivoji sanoatning taraqqiyot darajasiga bog'liq.

Ishlab chiqarish kuchlari va munosabatlari taraqqiyotida sanoatning tarixiy roli beqiyosdir. Shu sababli uning rivoji va samaradorligi qanchalik yuqori bo'lsa, davlatning mavqei shunchalik kuchli bo'ladi va aholi turmush darajasi yanada yaxshilanib boradi.

Sanoat jamiyatning yetakchi kuchi bo'lgan ishchilar sinfini o'zida birlashtiradi. Sanoat rivoji tufayli unda band bo'lgan xodimlarning soni ko'payadi, ularning bilim va ilmi, mahorati ortadi, kadrlar salohiyati yuqori darajaga ko'tariladi.

Mehnatni ijtimoiy tashkil qilishning eng oliy turi, kontsentratsiyaning yuqori darajasi va shu asosda ijtimoiy ishlab chiqarishni uyushtirishning ilg'or usullari – ixtisoslashtirish, kooperativlashtirish va kombinatlashtirish, ko'plab ishlab chiqarish va uzluksiz potok sistemasi yordami bilan tashkil etish sanoat sohasida hukmronlik qiladi.

Faqat yirik mashina industriyasigina fan va texnikaning barcha yutuqlarini o'zida to'plab, mujassamlashtirib, mehnatni texnika bilan qurollantirishi va uning unumdorligini yuqori darajaga ko'tarishi mumkin.

Sanoat va ayniqsa uning eng muhim sohasi bo'lgan og'ir sanoat mamlakatda kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning asosi hisoblanadi. U

moddiy texnika vositalarini o'zi va boshqa tarmoqlar uchun takror ishlab chiqarish bilan bir vaqtda jamiyat ahzolari o'rtasidagi ijtimoiy ishlab chiqarish munosabatlarini takomillashtirib boradi.

Sanoat qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini qayta qurishning negizi hisoblanadi. Uni yangi texnika bilan ta'minlash orqali sanoat dehqon xo'jaligini iqtisodiy va madaniy jihatdan yuqori darajaga ko'tarishga, shahar bilan qishloq o'rtasidagi muhim tafovutni yo'qotishga, dehqon mehnatini industrial mehnatga aylantirishga yordam beradi.

Sanoat mamlakat mudofaa qobiliyatining moddiy manbai, dunyoda tinchlikni saqlashning muhim omili, mamlakatlar mustaqilligini va birdamligini ta'minlovchi muhim sohadir. O'zbekiston davlatining mudofaa qobiliyatini yanada mustahkamlashda sanoatning roli muhimdir.

Barcha mamlakatlarning siyosiy, iqtisodiy va tashkiliy intilishlari, ularning xo'jalik jihatdan hamkorligi sanoat sohasida ham o'z ifodasini topadi. Davlatlarning tabiiy, mehnat resurslaridan, ilm-fan va texnikaning barcha yutuqlaridan foydalanish imkoniyatlarining kengayishida sanoatning ahamiyati salmoqlidir.

Sanoat uchun uzluksiz fan-texnika taraqqiyoti va ishlab chiqarish ilm-fan yutuqlari bilan qurollanishining o'sishi xarakterlidir. Unda elektrlashtirish va elektronizatsiyalash, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va kompg'yuterlashtirish hamda ximiyalashtirish sohasidagi ilg'or yutuqlardan keng foydalaniladi va ularning yutuqlarini tinchlik maqsadida qo'llaniladi.

Sanoat, ayniqsa uning ustuvor sohalari butun ishlab chiqarishni globallashtirish muammolarini hal etishning kalitidir. Sanoat moddiy ishlab chiqarishning bosh tarmog'i, iqtisodiyotning poydevoridir. Milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini qayta qurishga qodir bo'lgan yirik mashinalashgan sanoatgina mustaqillikning birdan bir moddiy negizi bo'lishi mumkin.

Mamlakat aholisining ish bilan bandligini oshirishda sanoatning roli beqiyosdir. SHuni ta'kidlash kerakki, kelajakda respublika sanoatining jadal

surhatlar bilan ta'minlanishi yanada yaxshilanib, mehnatga layoqatli aholining ijtimoiy foydali mehnat bilan mashg'ul bo'lishi, ya'ni bandlik darajasi anchagina yuksaladi. Jamiyatning yetakchi, bunyodkor, qudratli kuchi bo'lgan kadr (xodim)larning anchagina qismi sanoatda xizmat qiladi. Bu tarmoqning yanada ulkan rivoji sanoat kadrlari sonining oshishiga va ularning jamiyatdagi mavqeini ko'tarishga olib keladi.

Jamiyat taraqqiyotining muhim qonuniyatlaridan biri sanoat xodimlarining madaniy – texnik saviyasi o'sishi, ishlab chiqarish malakasi va tajribasini tinmay oshib borishidir.

Ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirishni ta'minlovchi buyuk harakatlantiruvchi kuch – raqobat ham avvalo, sanoat sohasida vujudga keldi va rivojlana boshladi. Tadbirkorlar, ishbilarmonlar bellashuvning bayroqdori bo'lib maydonga chiqdilar. Respublika sanoatida ham raqobat o'zining oddiy bosqichidan eng yuqori bosqichiga ko'tarilib, chinakam umumiy dastakka aylanmoqda.

Sanoat - bu ijtimoiy-iqtisodiy kategoriyadir. Demak, sanoat ob'ektiv reallik (borliq) ning inhikosi va yuksak umumlashmasidir. Uning alohida tarmoq, ya'ni ijtimoiy ishlab chiqarishning alohida sohasi bo'lib yuzaga kelishi ishlab chiqarish kuchlari va ijtimoiy mehnat taqsimotining rivoji bilan tarixiy jihatdan bog'liqdir. Sanoat ham ob'ektiv borliqning muhim hodisalari qatorida ma'lum davr (vaqt va fazo) da dunyoga kelgan, muayyan qonun va qoidalar asosida rivojlangan, ma'lum miqdor va sifatlarga, zaruriyat va imkoniyatlarga ega bo'lgan hamda ziddiyatlar qurboni ham bo'lgan.

O'zbekiston sanoati ham o'z taraqqiyoti jarayonida bir qator bosqichlarni bosib o'tgan. Eng avvalo, uy sanoati ("Ona qornidagi sanoat"), so'ngra, hunarmandchilik, ya'ni xonaki sanoat, kooperatsiya, manufaktura, fabrika kabi shakllari yuzaga kelgan. Bu yerda hunarmandchilikning juda ko'p turlari, ya'ni kulolchilik, duradgorchilik, toshtarashlik, binokorlik, o'ymakorlik, kashtado'zlik, ko'nychilik, to'quvchilik va tikuvchilik, temirchilik, misgarlik va zargarlik,

degrezlik, rixtagarlik, zardo'zlik, bo'yoqchilik, tunukasozlik va boshqalar keng tarqalgan.

Bu yerda hunarmandchilik ("Xonaki sanoat") bronza asrida dehqonchilikdan ajralib chiqqan. Milodning dastlabki asrlarida hozirgi O'zbekiston hududida anchagina hunarmandchilik markazlari tashkil topgan. IX-X asrlarda ip, mato, gilam bo'yicha Xiva va SHosh, mis va temirdan aslaha, pichoq tayyorlash bo'yicha Farg'ona, shoyi matolar, shisha mahsulotlar tayyorlash bo'yicha Buxoro dunyoga tanilgan. XII-XIII asrlarda rivojlanish pasayib, Temuriylar davlatining vujudga kelishi bilan hunarmandchilik yana rivoj topgan. Buxoro, Samarqand, Xiva, Toshkent, SHahrisabz kabi shaharlarning ishlab chiqarish munosabatlarida hunarmandchilik alohida ahamiyat kasb etgan. XIX asr oxiriga kelib, O'zbekistonda hunarmandchilikning 30 ga yaqin turi rivoj topgan. XX asr boshlarida esa hunarmandchilikning asosiy qismi artellarga, keyinchalik zavod va fabrikalarga, badiiy buyumlar korxonalariga aylantirilgan.

XVIII asrning 60-70-yillarida Angliyada ro'y bergan Sanoat to'ntarilishidan keyin O'zbekistonda asta-sekin manufakturadan mashinalashgan industriyaga o'tish boshlandi. Xomashyoga birlamchi ishlov beradigan sanoat sohalari (paxta tozalash, ipak tortish, vino, konserva, moy zavodlari) vujudga keldi.

XX asrda O'zbekiston sanoatida juda katta o'zgarishlar ro'y berdi. Agar asr boshlarida sanoat mahsulotining eng muhim turlaridan 5-10 xili (paxta tolasi, xom ipak, o'simlik moyi, uzum vinosi, g'isht, ganch va boshqalar) ishlab chiqarilgan bo'lsa, hozirgi paytda yuzlab-minglab turlari tayyorlanmoqda.

Sanoat ishlab chiqarishining tarixiy rivojlanishi va uning asosiy yakunlari to'g'risida so'z yuritilganda shuni ta'kidlash kerakki, hozirgi O'zbekiston hududida «Uy sanoati»ning rivoji bundan 12-15 ming yil muqaddam mezolit davrida boshlangan. Bu davrda juda oddiy mehnat qurollari va buyumlari tayyorlangan.

Yangi tosh asri (neolit, miloddan avvalgi 5-ming yilning boshi) davrida kemachilik, to'qimachilik vujudga kelgan. Neolit davrining oxirida metall dan qurol yasash boshlangan.

Arxeologik topilmalardan ma'lum bo'lishicha, miloddan avvalgi 3-ming yilning oxiridayoq hozirgi O'zbekiston hududida yashagan aholi mis dan qurol yasashni bilgan.

Quldorlik tuzumi (m.a. 1-ming yillik o'rtalari V asr) davrida mehnat qurollarining taraqqiy etishi, metallga ishlov berishning takomillashuvi hunarmandchilikning o'sishiga, ayirboshlash va savdo-sotiqning kuchayishiga olib keldi.

Feodalizm tuzumining boshlarida (VI-VIII asrlarda) Farg'ona bilan So'xdan oltin, mis, temir, Iloqda qo'rg'oshin, kumush, oltin, SHahrisabzda toshtuz qazib chiqarilgan.

IX asrda Samarqand o'zining sifatli qog'ozi va lampa shishasi bilan mashhur bo'lgan. SHosh viloyati ko'nchilik mahsulotlari bilan dong taratgan. O'sha davrda O'rta Osiyodan SHarqiy Yevropa, Xitoy va boshqa yurtlarga Buyuk Ipak yo'li orqali charm, mato, ipak, jun, kiyim-kechak chiqarilgan.

X-XIII asrlarda yuz bergan feodal tarqoqlik, qabila va elatlar o'rtasidagi nizolarning avjiga chiqishi tufayli hunarmandchilikda yirik o'zgarishlar ro'y bermagan.

XIV asrning 2-yarmida Amir Temur Samarqandda hokimiyatni qo'lga kiritib, markazlashgan davlatga asos soldi. Natijada davlatning iqtisodiy va ijtimoiy ravniqiga katta yo'l ochilgan.

XV asrning oxiriga kelib Movaraunnahrda yuzaga kelgan ziddiyatlar tufayli Temuriylar davlatining iqtisodiy negiziga putur yetadi va rivojlanish to'xtab qoladi.

XVI-XVIII asrlarda Buxoro, Xiva, Qo'qon xonliklarining vujudga kelishi iqtisodiyotning, shu jumladan, sanoat ishlab chiqarishining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va XIX asrga kelib Turkistonda hunarmandchilikda yog'och va metall o'ymakorligi, idishlarga naqsh solish, matolarga gul bosish, qurollarni badiiy bezash rivojlanadi. Bu asrning ikkinchi yarmida O'zbekiston hududida taraqqiyot tezlashib sanoat, ayniqsa ip-gazlama sanoati rivoj topdi.

XX asr boshlarida bir qancha paxta tozalash, yog'-moy zavodlari qurilib ishga tushirildi. 1925-1926 yillarda elektrostantsiyalar qurila boshlandi va birinchi bo'lib Toshkent yaqinida qurilgan Bo'zsuv gidroelektrostantsiyasi 1926 yil 1 mayda ishga tushirildi.

Samarqand, Buxoro, Qo'qon, Termiz va Asaka shaharlarida issiqlik elektrostantsiyalari qurilishi boshlanib, 1930 yilda ularning soni 30 ga yetdi. O'sib borayotgan energetika bazasi bir qancha yangi sanoat korxonalari qurishga imkoniyat yaratdi.

Ikkinchi jahon urushigacha bu yerda 500 dan ortiq sanoat korxonalari jumladan, «Tashselg'mash», Toshkent to'qimachilik kombinati, CHirchiq-elektrokimyo kombinati, Kattaqo'rg'on yog' zavodi, Bekobod va Quvasoy tsement korxonalari qurildi. Neftg' va rangli nodir metallar qazib chiqarish, qurilish sanoati mahsulotlarini tayyorlash rivoj topdi.

Urush boshlanishi bilan Respublika xalq xo'jaligi, jumladan, sanoat ishlab chiqarishi harbiy maqsadlarga qaratildi. Bu yerga nemis fashistlari egallab olgan hududlardan 100 ga yaqin sanoat korxonalari ko'chirib keltirildi va ular qisqa vaqt ichida to'la quvvat bilan ishlay boshladi. 1941-1945 yillar davomida Respublikaning industrial taraqqiyoti GES lar qurish bilan energetika bazasini kuchaytirish, qishloq xo'jaligi, aholi va front ehtiyojlarini qondiradigan zavod va fabrikalarni qurish yo'lidan bordi. Bu davrda 280 ta yirik, o'rta va kichik korxonalar qurilib ishga tushirildi. Natijada O'zbekiston Armiyaning sanoat arsenalaridan, ya'ni aslahaxonalaridan biriga aylandi.

Urushdan keyingi yillarda ham sanoat taraqqiyotiga e'tibor qaratilgani sababli uning bir qancha yangi tarmoqlari va korxonalar vujudga keldi. Traktorsozlik, liftsozlik, elektrotexnika sanoati, gaz ishlab chiqarish, uy ro'zg'or buyumlari tayyorlash, yig'ma temir beton va keramika sanoati vujudga keldi. Yengil sanoatning trikotaj, chinni ishlab chiqarish sohalari yuzaga keldi. Oziq-ovqat sanoatining tarkibiy qismlarida anchagina o'zgarishlar ro'y berdi. 90-yillarga kelib uning yirik va o'rta korxonalari 300 dan ortib ketdi.

Sanoat taraqqiyotida yoqilg'i – energetika majmuasining o'rni alohida e'tiborga molik. Uning tarkibiga energetika, neftg' va neftni qayta ishlash, gaz va gaz kondensati, ko'mir qazib olish va boshqa bir qator kichik sohalar kiradi.

Respublika mustaqillikka erishishi bilan O'zbekiston hukumati uzoq yillar davomida sobiq Ittifoqi ixtiyorida bo'lgan oltin qazib olish sanoatini respublika mustaqilligini mustahkamlash yo'lida, rivojlantirish bo'yicha bir qancha tashkiliy choralar ko'rdi. «O'zbekoltin» birlashmasi negizida O'zbekiston Respublikasining Qimmatbaho metallar Davlat Qo'mitasi tashkil etildi (1992 yil). Bu qo'mita 1994 yil O'zbekiston oltin qazib olish va olmosga ishlov berish korxonalari uyushmasi («O'zolmosoltin») ga aylantirildi.

O'zbekistonda qimmatbaho metallar ishlab chiqarish bilan bir qatorda uran ham qazib olinadi. Uni olish uchun mineral xomashyo bazasi mavjud. Uran eng samarali va ekologiya nuqtai nazaridan optimal hisoblangan usul - yer ostida ishqorlar yuvish usuli bilan olinadi.

Respublika mustaqillikka erishgunga qadar kimyo sanoati korxonalari ham bevosita sobiq Ittifoq Kimyo sanoati vazirligi tomonidan boshqarilgan. O'zbekistondagi kimyo korxonalari negizida 1991 yilda davlat kontserni tashkil etildi. 1994 yildan kontsern «O'zkiyosanoat» uyushmasiga aylantirildi. Uning tarkibida 22 ta ishlab chiqarish korxonasi va birlashma, 8 ta qo'shma, 3 ta ilmiy-tadqiqot, 1 ta loyiha institutlari, tashqi savdo firmasi va tashkilotlar bor.

Mashinasozlik sanoati - xalq xo'jaligi uchun mashina va mexanizmlar, jihozlar, agregat va apparatlar, asbob uskunalar, madaniy-maishiy mollar,

shuningdek, mudofaa ahamiyatiga ega bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqaruvchi og'ir sanoat tarmoqlari majmui. Mashinasozlik sanoati butun xalq xo'jaligini texnika bilan ta'minlashda moddiy asos hisoblanadi. Fan-texnika taraqqiyoti, xalqning moddiy-madaniy farovonligi va mamalakat quvvati mashinasozlik sanoati taraqqiyotiga bog'liq. Uning ahamiyati, eng avvalo, hozirgi fan-texnika yutuqlarini ishlab chiqarishga va insonlar hayotining barcha sohalariga joriy etish asosida qo'l mehnatini mashina mehnatiga aylantirish, mashinani mashina bilan yaratish, tejamkorlikni ta'minlash, yengillashtirish va mehnatning mazmuni va xarektirini o'zgartirishdan iborat. Mashinasozlik sanoati mahsulot sifatini yaxshilash, ishlab chiqarishning samaradorligini yuqori darajaga ko'tarishga imkoniyat yaratadi. Mashinasozlik sanoatining asosiy vazifasi milliy iqtisodning barcha sohalarini yuqori unum bilan ishlaydigan mehnat qurollari ya'ni mehnat vositalari bilan ta'minlashdan iborat. Ular turli tarmoqlar va korxonalarda tayyorlanadi. Hozirgi kunda mashinasozlik sanoatining 15 tarmog'i mavjud bo'lib, ular tasarrufida 100 dan ortiq yirik va o'rta korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda.

Mashinasozlik sanoati tarkibida metall ishlash sohasi ham mavjud bo'lib, bu soha o'z navbatida, metall buyumlar tayyorlash, metall konstruktsiyalar hamda mashina va asbob-uskunalar remonti tarmoqlaridan iborat. Bunday faoliyat bilan 2,5 mingdan ortiq korxonalar shug'ullanadi.

O'zbekiston mashinasozligiga avtomobilsozlik, samolyotsozlik, traktorsozlik va qishloq xo'jalik mashinasozligi, elektro-texnikasozlik, asbobsozlik va kabelsozlik kabi yirik tarmoqlar kiradi.

Respublika qurilish materiallari ishlab chiqaradigan ko'p tarmoqli sanoatga ega. TSement, asbest-tsement, devorbop materiallar, yumshoq yopqich va gidroizolyatsiya materiallari, tabiiy toshlardan qoplama material (plita)lar, noruda qurilish materiallari, qurilish keramikasi, issiqlik izolyatsiyasi materiallari, ohak, gips, bog'lovchi materiallar va ulardan buyumlar, sanitariya-gigena jihozlari, polimer xomashyodan qurilish materiallari va buyumlar, temir –beton konstruktsiyalari va boshqa ishlab chiqarish tarmoqlari mavjud. O'zbekistonda

tabiiy xomashyodan qurilish materiallari sifatida foydalanish tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Ayniqsa binolar qurilishida xom g'isht, guvala, yog'och sinch, oddiy tuproq(loy)dan, tiklanadigan paxsa asrlar davomida asosiy qurilish materiali bo'lib kelgan. Xumdonlarda pishirilgan g'isht, sopol, chinni koshin, ganch, yo'nilgan granit, marmar toshlar saroy, madrasa, masjid, rabotlar qurilishida keng qo'llanilgan.

Hozirgi davrda O'zbekiston yengil sanoati ko'p tarmoqli industrial kompleks bo'lib, uning tarkibida paxta tozalash zavodlaridan tashqari, to'qimachilik, trikotaj, shoyi to'qish, tikuvchilik, ko'npoyabzal, gilamchilik, chinni-fayans buyumlari va attorlik mollari ishlab chiqarish sohalarida 150 ta yirik va o'rta korxonalar bor. Respublika sanoat mahsulotlari umumiy hajmida yengil sanoat hisssasi 20% ni tashkil etadi. Bu tarmoqda 265 ming xodim ish bilan band. Yengil sanoat tarmog'ining eng muhim sohasidan biri bo'lgan paxta sanoati korxonalarida har yili 1,2 mln. tonnadan ortiq paxta tolasi, 100 ming tonnadan ortiq lint, 22,5 ming tonna chigit, 200 ming tonna urug'lik chigit tayyorlanadi. To'qimachilik sanoatini rivojlantirish maqsadida Rossiya, Italiya, Turkiya, Pokiston, Hindiston, Koreya va boshqa mamlakatlar firmalari bilan ip gazlamalar ishlab chiqaradigan yangi qo'shma korxonalar tashkil etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi xalq xo'jaligida oziq-ovqat sanoati eng muhim mavqeni egallaydi. Sanoatning bu tarmog'i asosan xomashyoni qayta ishlashga asoslangan. Oziq-ovqat sanoati tarmog'ida go'sht-sut, yog'-moy, baliq mahsulotlari, un-yorma, non, makaron, meva-sabzavot konservalari, qandolat, choy qadoqlash, uzum va shampan vinosi, spirt, aroq, tamaki, pivo, chanqoqbosar ichimliklar, sovun va boshqa mahsulotlar ishlab chiqaradigan ko'plab sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda.

Respublika mustaqillikka erishganidan so'ng oziq-ovqat sanoatida chuqur tashkiliy va iqtisodiy o'zgarishlar amalga oshirildi. Ko'pgina korxonalar davlat tasarrufidan chiqarilib ochiq turdagi aktsiyadorlik jamiyatlariga aylantirildi, ilgari tarmoq korxonalariga rahbarlik qilgan vazirliklar tugatilib, «Oziqovqatsanoat»

davlat-aktsiyadorlik kontserni, «O'zmevasabzavot-xolding» kompaniyasi, «O'zgo'shtsanoat» davlat-aktsiyadorlik uyushmasi, «O'zdonmahsulot», «O'zbaliq» davlat-aktsiyadorlik korporatsiyalari tashkil etildi.

So'nggi vaqtlarda mamlakatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish yildan yilga o'sib bormoqda. Buni quyidagi jadvaldan ko'rish mumkin.

1.1.1-jadval

2008-2014 yillarda O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy o'sish

	2008 yil	2009 yil	2010 yil	2011 yil	2012 yil	2013 yil	2014 yil
Yalpi ichki mahsulotning yillik o'zgarishi, %	9,0	8,1	8,5	6,3	8,2	8,0	8,1
Sanoat ishlab chiqarishidagi yillik o'zgarish, %	12,7	9,0	8,3	8,3	7,7	8,8	8,3

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

O'zbekiston iqtisodiyotining ko'rsatkichlari ijobiy bo'lishining eng muhim sabablari – bu mavjud sanoat tarmoqlarining kerakli hajmda saqlab qolib, yangi tarmoqlarni yaratish strategiyasi bo'ldi. Mustaqillikning birinchi yillaridanoq O'zbekiston hukumati uchun real sektorni rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib hisoblanadi. Respublikamizning o'z-o'zini yoqilg'i-energetika mahsulotlari bilan ta'minlash siyosati (neftg' va neftg' mahsulotlari hamda gaz ishlab chiqarishning keskin o'sishi), qo'shimcha qiymat yaratuvchi (mashinasozlik, yog'och va yog'ochni qayta ishlash) sohalarining intensiv rivojlanishi bilan birgalikda olib borildi. SHu bilan birga, qurilish materiallari, yengil va oziq-ovqat sanoatlarining rivoji ham qayd etildi.

Umuman olganda, tarmoqlar bo'yicha ishlab chiqarish tarkibida og'ir sanoat (yonilg'i-energetika majmuasi, mashinasozlik, metallurgiya) salmog'ining oshishi yengil sanoat ulushi hisobiga bo'lmoqda. Natijada, mustaqil iqtisodga xos bo'lgan

darajaga yaqinlashish yuz bermoqda va sobiq ittifoq mamlakatlarida qayta ixtisoslashuvdan paydo bo'layotgan yetishmovchilik va tobelikning oldini olish ta'minlanmoqda.

Ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash va qo'shimcha qiymat yaratuvchi sanoat tarmoqlarini rivojlantirishga qaratilgan iqtisodiy strategiya respublikaga yaxshi natijalar keltirmoqda.

O'zbekiston o'zining oltini, paxta tolasi va ipagi, nefti va gazi, samolyot va avtomobillari, paxta terish mashinasi va paxtani qayta ishlash mashinalari bilan, ekskavator va kompressorlari, vino va konservalari hamda bir qator boshqa sanoat mahsulotlari bilan dunyoga mashhurdir.

O'zbekiston respublikasining industrial qiyofasini energetika, kon-ruda, oltin qazib oluvchi, samolyotsozlik va avtomobilsozlik sanoatlari, elektrotexnika va elektron sanoatlari, ko'p tarmoqli mashinasozlik va qurilish materiallari sanoati belgilab bermoqda.

1.2. Sanoat korxonalarida mahsulotlar ishlab chiqarishda raqobatbardoshlik va unga ta'sir etuvchi omillar

Bozor iqtisodiyoti rivojlanib borishi bilan raqobatchilik munosabatlari ham takomillashib, o'z shakllarini o'zgartirib boradi. Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov raqobatning bozor iqtisodiyotidagi ahamiyatini ko'rsatib, «Raqobat bo'lmasa, bozor iqtisodiyotini barpo etib bo'lmaydi. Raqobat - bozorning asosiy sharti, aytish mumkinki, uning qonunidir», deb ta'kidlaydi.²

Raqobat ko'p qirrali iqtisodiy hodisa bo'lib, u bozorning barcha sub'ektlari o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ifodalaydi. Raqobat – bozor sub'ektlari

² Karimov I.A. «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda». T.: O'zbekiston, 1999, 34-bet.

iqtisodiy manfaatlarining to'qnashuvidan iborat bo'lib, ular o'rtasidagi yuqori foyda va ko'proq nafilikka ega bo'lish uchun kurashni anglatadi.

Raqobatning mazmuni uning vazifalarini ko'rib chiqish orqali yanada kengroq namoyon bo'ladi.

Hozirgi bozor iqtisodiyotida raqobatning quyidagi asosiy vazifalarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- 1) tartibga solish vazifasi;
- 2) resurslarni joylashtirish vazifasi;
- 3) innovatsion vazifa;
- 4) moslashtirish vazifasi;
- 5) taqsimlash vazifasi;
- 6) nazorat qilish vazifasi.

Raqobatning tartibga solish vazifasi ishlab chiqarishni talab (istehmol)ga muvofiqlashtirish maqsadida taklifga ta'sir o'tkazishdan iborat. Aynan shu vazifa yordamida iqtisodiyotda taklifning talab orqali, ishlab chiqarish tarkibi va hajmining yakka tartibdagi va ijtimoiy ehtiyojlar orqali belgilanishiga erishiladi, ya'ni iqtisodiyot bozor qonunlari asosida tartibga solinadi.

Raqobatning resurslarni joylashtirish vazifasi ishlab chiqarish omillarini ular eng ko'p samara beradigan korxona, hudud va mintaqalarga oqilona joylashtirish imkonini beradi.

Raqobatning innovatsion vazifasi fan-texnika taraqqiyoti yutuqlariga asoslanuvchi hamda bozor iqtisodiyoti sub'ektlarining rivojlanishini taqozo etuvchi turli ko'rinishdagi yangiliklarning joriy etilishini anglatadi.

Raqobatning moslashtirish vazifasi korxona (firma) larning ichki va tashqi muhit sharoitlariga ratsional tarzda moslashishiga yo'naltirilgan bo'lib, ularning shunchaki o'zini-o'zi saqlab, iqtisodiy jihatdan yashab qolishidan xo'jalik faoliyati sohalarining ekspansiyasi (kengayishi)ga o'tishini bildiradi.


Raqobatning taqsimlash vazifasi ishlab chiqarilgan nehmalar yalpi hajmi (yalpi ichki mahsulot)ning istehmolchilar o'rtasida taqsimlanishiga bevosita va bilvosita ta'sir o'tkazadi.

Nihoyat, raqobatning nazorat qilish vazifasi bozordagi bahzi ishtirokchilarning boshqa bir ishtirokchilar ustidan monopolistik hukmronlik o'rnatishiga yo'l qo'ymaslikka yo'naltiriladi.

Bozor raqobati qanday xususiyatga ega? Birinchi navbatda, rivojlangan bozorda raqobat istehmolchilar o'rtasida emas, balki tovarlar va xizmatlarni sotuvchilar o'rtasida ham yuz berib, ular ham istehmolchilar singari foyda olish uchun harakat qiladilar. Ammo ishlab chiqaruvchining shaxsiy foydani ko'zlashi, raqobat bo'lganda yuqori raqobatbardoshlikka erishishi, moddiy texnika, moliya va mehnat resurslaridan samarali foydalanishi umuman olganda jamiyat manfaatlariga mos keladi, chunki resurslar har qanday jamiyatda cheklangan bo'ladi. Raqobat maxsulot birligiga mehnat sarfini kamaytirishga, eng mukammal texnologiyalarni ishlab chiqarish va joriy etishga, maxsulot sifatini yaxshilash va narxini pasaytirishga rag'bat beradi.

Umumiy shaklda raqobatni uch turga (1.2.1-rasm) ajratish mumkin, ya'ni:

- sotuvchilar o'rtasidagi raqobat;
- xaridorlar o'rtasidagi raqobat;
- sotuvchilar va xaridorlar o'rtasidagi raqobat.



1.2.1-rasm. Raqobat turlari.

Raqobat kurashining mazmuni to'g'risida to'laroq tushunchaga ega bo'lish uchun uning asosiy shakllari va belgilarini ko'rib chiqish zarur. Iqtisodiy adabiyotlarda bir tarmoq ichidagi raqobatning to'rtta shakli alohida ajratilib ko'rsatiladi. Bular erkin raqobat, monopolistik raqobat, monopoliya va oligopoliyadir.

Erkin raqobat sharoitida bir xil mahsulot ishlab chiqaruvchi tarmoqda juda ko'p sonli korxonalar mavjud bo'ladi. Yuqori darajada tashkil qilingan bozorda ko'plab sotuvchilar o'zlarining mahsulotlarini taklif qiladilar.

Erkin raqobatli bozorda alohida korxonalar mahsulot narxi ustidan sezilarsiz nazoratni amalga oshiradi. Chunki har bir korxonada umumiy ishlab chiqarish hajmi uncha katta bo'lmaydi. Shu sababli alohida korxonada ishlab chiqarishning ko'payishi yoki kamayishi umumiy taklifga, demak mahsulot narxiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi.

Erkin raqobat sharoitida yangi korxonalar tarmoqqa erkin kirishi, tarmoqda mavjud bo'lgan korxonalar esa uni erkin tashlab chiqishi mumkin. Xususan yangi korxonalarning paydo bo'lishi va ularning raqobatli bozorda mahsulotlarini sotishga huquqiy, texnologik, moliyaviy va boshqa jiddiy iqtisodiy to'siqlar bo'lmaydi.

Sof monopoliyada tarmoq bitta firmadan iborat bo'lishi sababli, u mavjud mahsulot (xizmat) ning yagona ishlab chiqaruvchisi hisoblanadi va yakkahukmronlik shakllanadi.

Monopoliya sharoitida firma narx ustidan sezilarli nazoratni amalga oshiradi. Buning sababi oddiy. U mahsulot (xizmat) ning yagona ishlab chiqaruvchisi hisoblanadi va demak, taklifning umumiy hajmi ustidan nazorat qiladi.

Monopolistik raqobat o'z ichiga ham monopoliya, ham raqobat unsurlarini

oladi. Bunda tarmoqdagi bir turdagi mahsulotning o'nlab ishlab chiqaruvchilari bir-birlari bilan qulay narx hamda ishlab chiqarish hajmiga erishish borasida raqobatlashadilar. Biroq, ayni paytda, har bir ishlab chiqaruvchi o'z mahsulotini tabaqalashtirish, ya'ni shu turdagi boshqa mahsulotlardan qaysi bir jihati (sifat darajasi, shakli, qadoqlanishi, sotish sharoitlari va h.k.) bo'yicha farqlantirish orqali uning monopol ishlab chiqaruvchisiga aylanadi.

Oligopoliya – tarmoqda u qadar ko'p bo'lmagan korxonalarning mavjud bo'lishi va hukmronlik qilishidir. Bu oligopoliyaning eng muhim belgisidir. Qaysi bozorda nisbatan kam sonli ishlab chiqaruvchilar hukmronlik qilsa, shu tarmoq oligopolistik tarmoq hisoblanadi.

Oligopolistik tarmoq bir xil yoki tabaqalashgan mahsulot ishlab chiqarishi mumkin. Ko'pchilik sanoat mahsulotlari: po'lat, mis, alyuminiy, qo'rg'oshin, temir va shu kabilar – fizik mahnoda bir turdagi mahsulotlar hisoblanadi va oligopoliya sharoitida ishlab chiqariladi. Istehmolchilik tovarlari: avtomobillar, yuvish vositalari, sigaretlar, maishiy elektr buyumlari va shu kabilarni ishlab chiqaruvchi tarmoqlar tabaqalashgan oligopoliya hisoblanadi. Oligopoliya sharoitida korxonalar o'rtasidagi raqobat o'zaro bog'liq bo'ladi. Oligopolistik tarmoqda hech qaysi firma o'zining narx siyosatini mustaqil o'zgartirishga botina olmaydi.

Raqobatni to'rtta shaklining har biri milliy iqtisodiyotda alohida-alohida, ya'ni sof holda uchramaydi. Iqtisodiyot sohalarini batafsil o'rganish, cheksiz ko'p har xil raqobatli vaziyatlar mavjudligi sharoitida, ikkita bir xil tarmoqni topish qiyinligini ko'rsatadi.

Hozirda turli darajadagi monopolistik tuzilmalar rivojlanib borishi bilan ular o'rtasidagi raqobatning shakllari ham turli ko'rinishlarda namoyon bo'lib bormoqda. Jumladan, turli monopollashuv darajasidagi tuzilmalar o'rtasida mavjud bo'lishiga ko'ra quyidagi raqobat turlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

1. monopollashmagan korxonalar o'rtasidagi raqobat;

2. monopoliyalar hamda monopolistik birlashmalarga kirmagan ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi raqobat;
3. turli monopoliyalar o'rtasidagi raqobat;
4. monopolistik birlashmalar o'zining ichidagi raqobat.

O'z miqyosiga ko'ra raqobat ikki turga - tarmoq ichidagi va tarmoqlararo raqobatga bo'linadi.

Tarmoqlar ichidagi raqobat ishlab chiqarish va sotishning qulayroq sharoitiga ega bo'lish, qo'shimcha foyda olish uchun bir tarmoq korxonalari o'rtasida boradi. Har bir tarmoqda texnika bilan ta'minlanish darajasi va mehnat unumdorligi darajasi turlicha bo'lgan korxonalar borligi sababli shu korxonalarda ishlab chiqarilgan tovarlarning individual (alohida) qiymati bir xil bo'lmaydi.

Tarmoq ichidagi raqobat tovarlarning ijtimoiy qiymatini, boshqacha aytganda, bozor qiymatini aniqlaydi va belgilaydi. Bu qiymat, odatda, o'rtacha sharoitda ishlab chiqarilgan va muayyan tarmoq tovarlarining anchagina qismini tashkil etadigan tovarlarning qiymatiga mos keladi.

Tarmoqlar ichidagi raqobat natijasida texnikaviy darajasi va mehnat unumdorligi yuqori bo'lgan korxonalar qo'shimcha foyda oladilar va aksincha, texnika jihatdan nochor korxonalar esa, o'zlarida ishlab chiqarilgan tovar qiymatining bir qismini yo'qotadilar va zarar ko'radilar.


Tarmoqlararo raqobat turli tarmoqlar korxonalari o'rtasida eng yuqori foyda normasi olish uchun olib boriladigan kurashdan iborat. Bunday raqobat foyda normasi kam bo'lgan tarmoqlardan foyda normasi yuqori tarmoqlarga kapitallarning oqib o'tishiga sabab bo'ladi. Yangi kapitallar ko'proq foyda keltiruvchi sohalarga intilib, ishlab chiqarishning kengayishiga, taklif ko'payishiga olib keladi. SHu asosda, narxlar pasaya boshlaydi. SHuningdek, foyda normasi ham pasayadi. Kam foyda keltiruvchi tarmoqlardan kapitalning chiqib ketishi teskari natijaga olib keladi: bu yerda ishlab chiqarish hajmi o'zgaradi, tovarlarga bo'lgan talab ular taklif qilishidan oshib ketadi, buning oqibatida narxlar ko'tariladi, shu bilan birga foyda normasi oshadi. Natijada tarmoqlararo raqobat

ob'ektiv ravishda qandaydir dinamik muvozanatni keltirib chiqaradi. Bu muvozanat kapital qaerga sarflanganligidan qathiy nazar, teng kapital uchun teng foyda olinishiga intilishni ta'minlaydi. Demak, tarmoqlararo raqobat kapital qaysi tarmoqqa kiritilmasin, xuddi shu tarmoq foyda normalarini o'rtacha foyda normasiga «baravarlashtiradi».

SHuningdek, iqtisodiy adabiyotlarda g'irrom va halol raqobatlashuv usullari ham ajratib ko'rsatiladi. Raqobatlashuvning noanhanaviy, jamiyat tomonidan e'tirof etilmagan, ijtimoiy ahloq qoidalari doirasidan chetga chiquvchi, noiqtisodiy (ya'ni, jismoniy kuch ishlatish, majburlash, raqiblarning obro'siga putur yetkazish va h.k.) usullaridan foydalanish g'irrom raqobat deb yuritiladi. G'irrom raqobat orqali firmalar o'z raqiblarining tarmoqqa kirib kelishini tajovuzkorona va shafqatsiz bartaraf qilishi mumkin. Bank va resurslarni yetkazib beruvchilarni material va kredit berishdan voz kechirish, yetakchi mutaxassislarni og'dirib olish, narxni keskin pasaytirish g'irrom raqobatning oddiy usullaridir.

Halol raqobat – raqobat kurashida jamiyat tomonidan tan olingan, iqtisodiy usullarni qo'llash, o'zining maqsad va manfaatlariga erishishda umumjamiyat manfaatlariga zid keluvchi holatlarni qo'llamaslik kabi qoidalarga asoslanadi.

Raqobat kurashining ikki usuli farqlanadi: narx vositasidagi raqobat va narxsiz raqobat.



1.2.2-rasm.Raqobat kurashi usullari

Narx vositasida raqobatlashuvda kurashning asosiy usuli bo'lib ishlab chiqaruvchilarning o'z tovarlari narxini boshqa ishlab chiqaruvchilarining shunday mahsulotlari narxiga nisbatan pasaytirishi hisoblanadi. Uning asosiy va eng ko'p qo'llaniladigan ko'rinishi – «narxlar jangi» deb ataladiki, bunda yirik ishlab chiqaruvchilar raqiblarini tarmoqdan siqib chiqarish uchun narxni vaqti-vaqti bilan yoki uzoq muddat pasaytirib turadi. Bu usulni qo'llash uchun ishlab chiqaruvchi boshqa raqiblariga qaraganda unumliroq texnologiyani kiritishi, malakaliroq ishchilarni yollashi va ishlab chiqarishni yaxshiroq tashkil qilishi keraq bo'ladi. Faqat shundagina uning tovarining individual qiymati bozor qiymatidan past bo'lib, mazkur tovar narxini tushurish imkoniyatini beradi.

Narx vositasida raqobatlashish usullaridan biri - demping narxlarni qo'llashdir. Bunda milliy ishlab chiqaruvchilar o'zlarining tovarlarini boshqa mamlakatlarga ichki bozordagi narxlardan, ayrim hollarda tannarxidan ham past bo'lgan narxlarda sotadi.

SHu orqali ular ichki bozorda narxlarning barqarorligiga erishish mamlakatdagi ortiqcha mahsulotni yo'qotish, yangi bozorlarga kirib olish va unda o'zlarining iqtisodiy mavqeini mustahkamlashga xaraqat qiladi.

Ayrim hollarda narx yordamida raqobatlashishning belgilangan narxlardan chegirma qilish, asosiy xarid qilingan tovarlarga boshqa tovarlarini qo'shib berish, muayyan hollarda imtiyozli narxlarni belgilash kabi usullaridan ham foydalaniladi.

Hozirgi davrda bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda narx yordamida raqobat qilish o'z o'rniga ega emas, chunki ishlab chiqaruvchilardan birining o'z mahsulotiga narxni pasaytirishi uning raqobatchilarining ham shunday xaraqat qilishini taqozo qiladi. Bu bozorda firmalarning mavqeini o'zgartirmaydi, faqat tarmoq bo'yicha foydani kamaytiradi.


Narxsiz raqobat shu bilan tavsiflanadiki, bunda raqobat kurashining asosiy omili tovarlarning narxi emas, balki uning sifati, servis xizmat ko'rsatish, ishlab chiqaruvchi firmaning obro'-e'tibori hisoblanadi.

Narxsiz raqobat bilan bir vaqtda yashirin narx yordamidagi raqobat ham bo'lishi mumkin. Buning uchun yangi tovarlarning sifati oshishi va istehmol xususiyatlarining yaxshilanishi ular narxlarining oshishiga qaraganda tez ro'y berishi keraq. Hozirgi davrda bir turdagi mahsulotlarning ko'payishi ularning sotishni rag'batlantiruvchi reklama, tovar belgilari va fabrika muhrlaridan foydalanishni keltirib chiqarmoqda. Istehmolchilik bozorida qo'shimcha xizmat ko'rsatish orqali xaridorlarni o'ziga jalb qilish keng tarqalmoqda.

Narxsiz raqobatning tovar sifatini tabaqalashtirish kabi usuli ham mavjudki, bunda tovarlar bir xildagi ehtiyojni qondirishi va bir turga mansub bo'lishi, lekin turli-tuman istehmol xossalariga ega bo'lishi mumkin.

Tovarlar talabga nisbatan ortiqcha bo'lgan sharoitda ishlab chiqaruvchilar tovarlarini kreditga sotish usulidan foydalanib raqiblaridan ustun kelishlari mumkin. Bunda dastlab tovar narxining faqat bir qismi to'lanadi, uning qolgan qismi esa shartnomada kelishilgan aniq muddatlarda to'lanadi.

Iqtisodchilar uchun sotuvchilar o'rtasidagi raqobat g'oyat qiziqarlidir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida sotuvchilar (tovar ishlab chiqaruvchilar) iste'molchining puli uchun kurashadilar. Sotuvchilar o'rtasidagi raqobat bozor iqtisodiyotida eng ko'p uchraydigan va ko'plab jihatlarni o'z ichiga olgan raqobat shakli hisoblanadi. Sotuvchilar o'rtasidagi raqobatni kengroq miqyosda tushuntirib berish uchun iqtisodchilar uni ikki yirik qismga: tarmoq ichidagi va tarmoqlararo raqobat shakllariga ajratadilar (1.2.2-rasm).



1.2.2-rasm. Sotuvchilar o'rtasidagi raqobat

Fan-texnika taraqqiyoti avj olgan hozirgi sharoitda, texnika va texnologiyaning eng yangi yutuqlari ustidan nazorat qilish uchun kurash raqobatning asosiy usullaridan biriga aylanib bormoqda. Bundan tashqari, ishlab chiqaruvchi korxonalar haridorlarni jalb qilish maqsadida uzoq muddat foydalaniladigan istehmolchilik tovarlariga kafolatli va kafolatdan keyingi xizmat ko'rsatishni amalga oshirmoqdalar. Masalan, kompyuter ishlab chiqaruvchi firma, o'z mahsulotini sotibgina qolmasdan, balki uni o'rnatadi, korxona xodimlarini ulardan foydalanishga o'rgatadi, kafolatlangan muddatda va undan keyingi davrda tahmir ishlarini bajaradi, texnikaviy xizmatni amalga oshiradi; maxsulotlari o'lchamlarini buyurtmachi ehtiyojlariga yaqinlashtiradi.

Raqobatning amal qilishi ma'lum shart-sharoitlar mavjud bo'lishini taqozo qiladi. Bu shart-sharoitlar faqat bozor munosabatlari qaror topgan muhitda bo'lishi mumkin. SHunday ekan, bozor iqtisodiyotini yuzaga keltirish ayni vaqtda raqobatchilik muhitining shakllanishini bildiradi.

Bozor munosabatlari rivojlangan mamlakatlarda raqobatchilik muhiti uzoq davr davomida, o'z-o'zidan, evolyutsion yo'l bilan vujudga kelgan. Bu asta-sekin erkin raqobat muhitini keltirib chiqargan.

Iqtisodiyotda monopollashuv printsiplari kuchayib borishi bilan raqobat cheklanadi, shu sababli raqobatchilik muhitini vujudga keltirishda davlat ham qatnashadi. Bu esa, yuqorida ta'kidlanganidek, davlatning monopoliyalarga qarshi siyosatida o'z aksini topadi. Har bir mamlakatdagi aniq vaziyat, ya'ni iqtisodiyotning monopollashuv darajasi uning miqyosi va tavsifiga qarab, bu siyosat erkin raqobat muhitini yangidan yaratish, uni saqlab qolish, zarur bo'lganda qaytadan tiklash, raqobat usullarini qaror toptirish kabilarga qaratiladi.

Mahmuriy-buyruqbozlik iqtisodiyotidan bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlarda, shu jumladan, bizning respublikada sog'lom raqobatga shart-sharoit hozirlash, iqtisodiy subhektlar mustaqilligini kengaytirish orqali ularni raqobatchilikka jalb qilish iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarning muhim jihatlari hisoblanadi. Zero, Prezidentimiz

ta'kidlaganidek, bugungi kunda «... kuchli talab va raqobat iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirishni ob'ektiv shart qilib qo'ymoqda. Bu borada ham juda ko'p yechilmagan muammolar bor. Ya'ni, eski mahmuriy-taqsimot tizimi qoliplaridan butunlay voz kechish, davlatning iqtisodiyotga aralashuvini yanada cheklash, erkin tadbirkorlik faoliyati uchun amaliy kafolatlarni ta'minlash, iqtisodiyot va biznesni barqaror rivojlantirish, to'laqonli bozor infratuzilmasini shakllantirish yo'lidagi mavjud g'ov-to'siqlarni bartaraf etishimiz zarur»³.

Bugungi kunda O'zbekistonda ham uyushmalar, kontsernlar, korporatsiyalar, kompaniyalar shaklidagi monopoliyalar saqlanib qolgan bo'lib, ular ko'pincha tarmoq vazirliklari mavqe va vazifalariga ega bo'ladilar. Mahsulot va xom ashyolarning alohida turlarini limit va fond ko'rinishida taqsimlashning eskicha tizimi, shuningdek, biznesni amalga oshirish uchun ruxsat, litsenziya, sertifikatlar berish, kelishish kabi mavjud mahmuriy to'siqlar monopolistik tendentsiyalarga ko'proq imkon yaratadi.

SHunga ko'ra, O'zbekistonda samarali raqobat muhitini yaratish uchun quyidagilar bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi taqozo etiladi:

a) iqtisodiyotda davlat monopolizmining har qanday namoyon bo'lishini maksimal darajada bartaraf etish;

b) bozor sharoitida vujudga kelayotgan monopoliyalarning bozordagi o'z ustunlik mavqelarini suiste'mol qilish imkoniyatlarining oldini olish.

Raqobat mahsulot ishlab chiqaruvchilar va xizmatlar ko'rsatuvchi korxona, firma, muassasalar va boshqa iqtisodiyot subhektlarining qulayroq ishlab chiqarish va sotish sharoitlari uchun olib boriladigan kurash bo'lib bu yerdagi asosiy maqsad iste'molchining xoxishlarini optimal darajada qondirish orqali bozordagi mavqeini saqlab qolish va ko'zlagan foydaga erishishdir. Raqobat nafaqat iste'molchining nufuzi yuqori bo'lishini ta'minlaydi balki uning munosabatlari va u bergan bahoni firma kelajagi va taqdirini xal qiluvchi omil darajasiga olib chiqadi.

³ Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. T.: «O'zbekiston», 2005, 76-77-b.

O'zbekistonda raqobatchilik muhitini vujudga keltirishning asosiy yo'li, bu raqobatni inkor qiluvchi davlat monopoliyasidan nodavlat, turli xo'jalik shakllarining mavjudligiga asoslangan va iloji boricha erkin raqobatni taqozo etuvchi bozor tizimiga o'tishdir. Bu yerda raqobatchilik munosabatlarini shakllantirish, avvalo, mustaqil erkin tovar ishlab chiqaruvchilarning paydo bo'lishini taqozo qiladi, chunki raqobatning asosiy sharti alohidalashgan, mulkiy mashuliyat asosida o'z manfaatiga ega bo'lgan va tadbirkorlik tahlikasini zimmasiga oluvchi erkin xo'jalik subhektlarining mavjudligi, ularning bozor orqali aloqa qilishidir.

SHu maqsadda O'zbekistonda «Monopol faoliyatni cheklash to'g'risida»gi qonun (1992 yil, avgust) kuchga kiritildi hamda uning asosida raqobatchilikni rivojlantirishga qaratilgan bir turkum mehyoriy hujjatlar ishlab chiqildi. Mazkur qonunga ko'ra, bozorda ataylab taqchillik hosil qilish, narxlarni monopollashtirish, raqobatchilarning bozorga kirib borishiga to'sqinlik qilish, raqobatning g'irrom usullarini qo'llash man etiladi. Qonunni buzuvchilar raqibiga yetkazgan zararni qoplashlari, jarima to'lashlari, g'irromlik bilan olgan foydadan mahrum etilishlari shart.

Iqtisodiyot va monopoliyaga qarshi amaliyot sohasidagi ahamiyatli o'zgarishlar tegishli qonunchilik bazasini yanada takomillashtirishni taqozo etdi. SHunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 1996 yil 27 dekabrda «Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to'g'risida»gi yangi qonun qabul qilindi. Ushbu qonun monopolistik faoliyat va g'irrom raqobatning oldini olish, uni cheklash, to'xtatishning tashkiliy va huquqiy asoslari belgilab berib, respublikaning tovar bozorlarida raqobat munosabatlarini shakllantirish va samarali amal qilishga qaratilgan.

SHuningdek, qonunda asosan ikkita muhim yo'nalish, ya'ni birinchidan, monopoliyaga qarshi taribga solishning printsipial yangi ko'rinishi bo'lib, u mavjud va saqlanib qolgan monopolistlar tomonidan bozorda hukmronlik mavqeini suiste'mol qilishning oldini olish va unga barham berishni ko'zda tutsa,

ikkinchidan, eng asosiy muhim masalalardan bo'lib hisoblangan monopoliyadan chiqarish va sog'lom raqobat muhitini shakllantirish ekanligi belgilab qo'yilgan.

Monopoliyaga qarshi faol choralarni amalga oshirish uchun 1992 yilda O'zbekistonda monopoliyaga qarshi organ Moliya vazirligining Monopoliyaga qarshi va narx siyosati bosh boshqarmasi sifatida tashkil etildi. Boshqarmaga ro'yxatga kiritilgan monopoliya mavqeidagi korxonalar mahsuloti bo'yicha narxlarni va rentabillikni tartibga solib turish huquqi berildi. 1996 yilda ushbu boshqarma negizida Moliya vazirligi huzuridagi Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish qo'mitasi tashkil qilindi. 2000 yilda Respublika Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasini tashkil etish to'g'risida»gi Farmoniga asosan monopoliyaga qarshi organ Moliya vazirligi tarkibidan chiqarildi va mustaqil davlat qo'mitasiga aylantirildi. Keyinchalik mazkur qo'mitaning faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 30 apreldagi Farmoniga binoan u Monopoliyadan chiqarish, raqobatni va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasiga aylantirildi.⁴

Respublikada monopol mavqeiga ega bo'lgan korxonalarni Davlat reestriga kiritish uchun mezonlar belgilashda jahon tajribasi hamda o'tish davrining o'ziga xos jihatlari hisobga olinadi.

Hozirgi davrda Respublikada agar korxona ishlab chiqargan muayyan mahsulotlar bozordagi shu turdagi mahsulotning 35% dan ortiq bo'lsa, bu korxona monopolistik korxona sifatida Davlat reestriga kiritiladi. Oziq-ovqat tovarlari guruhi uchun bunday mezon darajasi 20% deb belgilangan.

Respublikada monopoliyalar ro'yxatiga kirgan korxona (tarmoq) larning bozordagi mavqeini tartibga solishda davlat bir qator usullardan foydalanadi. Bu usullardan ikkitasini ajratib ko'rsatish lozim:

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. O'zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasini tashkil etish to'g'risida. 2005 yil 30 aprel.

1. Monopol mavqeidagi korxonalar mahsulotlariga narxlarning eng yuqori darajasini yoki rentabellikning chegarasini belgilab qo'yish.

2. O'z monopol mavqeini suiiste'mol qilgan monopolistik birlashmalarni bo'lib tashlash yoki maydalashtirish. Bu usul Vazirlar Mahkamasining (1994 yil 18 iyuldagi 366-sonli) qarori bilan tasdiqlangan «Ob'ektlarning xo'jalik yurituvchi jamiyatlar va shirkatlar tarkibidan chiqish tartibi to'g'risidagi Nizom» asosida amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasining «Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida» (1996 yil, aprel) qonuni asosida g'irrom raqobatga, shu jumladan Respublika bozorlariga belgilangan talablarga javob bermaydigan tovarlarni chiqarishga yo'l qo'ymaydigan mexanizmni yaratishga ham alohida e'tibor beriladi.

Tabiiy monopoliyalarni davlat yo'li bilan tartibga solish ular mahsulot (xizmat)lariga narxlar va tariflar darajasini, shuningdek taklif etiladigan tovarlar va xizmatlar turiga doir asosiy ko'rsatkichlarni belgilashni o'z ichiga oladi.

Respublikada raqobatchilik muhitini vujudga keltirishda amalga oshirilayotgan barcha ishlar bozor iqtisodiyotini tarkib toptirishga xizmat qiladi.

Xo'jalik subhektlarining raqobatbardoshligi bugungi kunda o'ta muhim nazariy va amaliy masala bo'lib harajatlarni kamaytirish, sifatni oshirish, assortimentni doimo yangilab turish, bozorda o'z mavqehyini saqlashga intilish, iste'molchini yaxshi bilish va xoxish istaklarini o'z vaqtida anglab olishni taqozo etadi. Raqobatbardoshlikning garovi sifatida intellektual mulk mavjudligi, unga bo'lgan munosabat, uni ximoya qilish va undan foydalanishga bog'liqdir. Yangiliklardan xabardor bo'lish, ularni o'z vaqtida joriy qilish imkoniyatlari aynan yuqori malakaga ega bo'lgan mutaxassislar va olimlar tomonidan amalga oshiriladi. Intelektual saloxiyat orqali firma yangi raqobatbardosh mahsulot yaratish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bugungi kunda eng avvalo mahsulot yoki xizmatni yaratuvchisi va taqdim etuvchisi to'yingan bozor sharoitida harajatlarga, narx-navoga va sifatga aloxida e'tiborini qaratishga majbur. Beshavqat va odil bozor xamma narsani o'z joyiga

qo'yib saralash vazifasini bajaraveradi. Bozordagi raqobat kuchayishi marketing faoliyatida sifat va raqobatbardoshlik muammosini samarali xal etishga ko'maklashadi, ular esa o'z navbatida uning imkoniyatlariga ijobiy yoki salbiy ta'sir qo'rsatadilar.

Tovarning raqobatbardoshligi – tijorat muvofaqiyatining garovidir. Uning mahnosi eng avvalo tovarni bozor sharoitlariga mos kelishi, iste'molchilarning mahsulotning nafaqat sifati, texnik xususiyatlari, iqtisodiy, estetik taraflari, balki tijorat taraflariga – narxiga, taqdim etish vaqtiga, sotish kanallari, servis va reklamasi xamda iste'molchi mahsulotni olganidan keyingi davrdagi qoniqish darajasi va qo'shimcha sarf-harajatlarida namoyon bo'ladi.

Raqobatbardoshlik aynan tovarning boshqa turdosh tovarlar bilan solishtirilganda iste'mol va qiymat xususiyatlarining kompleks xususiyatlari bo'lib bozordagi muvofaqiyatni ifodalaydi va bu yerda aynan ushbu tovarni boshqalardan ustunligini yoki ulardan qolishmasligini ifodalaydi. Tovar va xizmatlar albatta bizga ularni taqdim etuvchilar va tayyorlaganlar xaqida ma'lumot olish imkonini beradilar va shular tufayli iste'molchilar korxonalar, tashkilotlar, firmalar va ular joylashgan mamlakat va shaharlar xaqida bilib oladilar.

Bozorga taqdim etilgan har qanday mahsulot haridorlar chig'irig'idan o'tadi. Har bir haridor o'ziga sifati va narxi bo'yicha eng mahqul mahsulotni sotib oladi. Ko'pchilik esa odatda tovarlarning sarasiga qiziqadi va imkon qadar ularni sotib oladi. Haridor e'tibor va xurmati ishonchiga kirgan tovar raqobat bozorida o'z munosib o'rniga ega bo'lishi tabiiy. Demak mahsulotning raqobatbardoshligi faqat boshqa mahsulotlar bilan solishtirish orqali aniqlanishi mumkin. Raqobatbardoshlik nisbiy tushuncha bo'lib aniq bozor sharoitida va aniq sotish vaqt doirasida namoyon bo'ladi. Haridorlar xilma xilligi esa mahsulot va baho berishning ko'p qirrali bo'lishiga sabab bo'ladi. Bu yerda iste'molchining aniq manfaatlari va imkoniyatlari hisobga olinishi muhimdir.

Mahsulot raqobatbardoshligini aniqlashda mahsulotning texnik darajasi va sifat darajasiga e'tibor qaratadilar. Mahsulot sifatini aniqlash uchun yuqori sifatli shu toifadagi boshqa mahsulotga barcha parametrlari bo'yicha solishtirib ko'rish zarur. Mahsulotni tayyorlash paytida ma'lum bir tartib qoidaga texnologiyaga rioya etilib unga maksimal darajada erishishga harakat qilinadi. Uning estetik - ergonomik (iste'molchiga har taraflama qulay bo'lishi) xususiyatlari, xavfsizligi aloxida e'tibor markazida bo'ladi. Iste'molchi tomonidan baholanishi raqobatbardoshlik texnik xususiyatlarda o'z aksini namoyon etmaydi.

Bugungi kunda tadbirkor shiddatli raqobat sharoitida asosiy e'tiborni hamkorlikga qaratmog'i lozim. Iste'molchini xoxish istaklarini bilish qanchalik muhim bo'lsa raqiblarni bilish va ular bilan hamkorlik yo'llarini izlab topish muvaffaqiyat garovidir.

II-bob. “MEXMASH” MCHJ da sanoat mahsulotlari raqobatbardoshligi tahlili.

2.1. “MEXMASH” MCHJ ning moliya-xo'jalik faoliyati va asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili.

Mamlakatimizning ko'p asrlik tarixi va mustaqillik davridagi taraqqiyotida Namangan viloyati o'zining boy o'tmishi, madaniyati sanoati, qishloq xo'jaligi kabi tarmoqlarda erishilgan natijalari bilan alohida o'rin egallab kelgan.

Namangan viloyati sanoati asosan yengil va oziq-ovqat sanoati korxonalaridan iborat. Sanoat korxonalarining asosiy qismi Namangan sanoat tugunida joylashgan. Temiryo'l, avtomobil transporti ham yaxshi rivojlangan.

Namangan viloyati hududidan Farg'ona vodiysini poytaxt - Toshkent, shuningdek, respublikamizning boshqa joylari bilan bog'lovchi ikkita tog' tunneli o'tadi. Ko'plab to'qimachilik va oziq-ovqat ishlab chiqaruvchi yirik korxonalari qatorida mashhur CHortoq shahridagi kurort maskanlari kabi shifobaxsh suvga ega sanatoriylar viloyatning haqiqiy mahnodagi faxri sanaladi.

Xullas, viloyatda iqtisodiy imkoniyat va salohiyat, zamonaviy infratuzilma mavjud bo'lib, ayni paytda uni yanada takomillashtirish zarurati ham yo'q emas, buning uchun dunyo tajribasida aniqlanganidek, investisiya jalb qilish asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. hozirda shu maqsadga qaratilgan chora-tadbirlarni amaliyotga qo'llash borasida muayyan ishlarga kirishilgan.

Bunda avvalo mamlakatimiz Prezidentining 2009 yil 6 iyuldagi 3215-sonli Farmoyishiga muvofiq tasdiqlangan "2009-2012 yillarda Namangan viloyatida sanoatni rivojlantirish dasturi" katta ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur dasturning ijrosi albatta viloyat sanoatining hozirgi holatini tahlil qilish, ushbu sanoat mahsulotlariga bo'lgan talab va taklifni o'rganish, uning natijalariga qarab rivojlanish yo'nalishlari va strategiyasini belgilash tabiiy va zarur jarayon hisoblanadi. Mazkur jarayon ishtirokchisi hisoblangan davlat organlaridan biri

Tashqi iqtisodiy aloqalar, investisiyalar va savdo vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, Namangan viloyatida "Nestle-Uzbekistan", "Tip-Top" kabi qator qo'shma korxonalar muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatmoqda. Umuman, viloyatda 58 ta xorij kapitali asosidagi qo'shma korxona ro'yxatdan o'tgan. Tahlillarga ko'ra, hududda to'qimachilik, oziq-ovqat, meva-sabzavot mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash yo'nalishini rivojlantirish mumkin. Bundan tashqari maishiy texnikalarni ishlab chiqarish, elektronika va xizmat sohasini rivojlantirish ham maqbul yo'nalishlar hisoblanadi.

Viloyatimizda sanoat korxonalari faoliyati to'g'risida gap ketganda, "MEXMASH" MCHJ ning o'ziga xos o'rni mavjud.

Hozirgi kunda jamiyat po'lat quvurlar va boshqa turdagi metallokonstruktsiyalar ishlab chiqarish bo'yicha yetakchi korxonalardan biri hisoblanadi. Jamiyat tomonidan quyidagi mahsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan:

CHokli po'lat quvurlar;

Avtomatlashtirilgan sanoat va uy issiqxona majmualari;

Inkubatorlar;

Turli qishloq ho'jalik texnika vositalari;

Zararkunanda xasharotlarga qarshi kurash biolaboratoriyalari;

Va boshqa turdagi metall mahsulotlar.

Bugungi kunda ishlab chiqarish jarayoni mustaxkam algoritmgaga asoslangan, har bir ishlab chiqarish hududida sermaxsul va sifatli ish uchun qulay sharoitlar yaratilgan. Ishlab chiqarish jarayoni loyihalashtirishdan boshlanadi. Buyurtmachini talabini qondirish uchun jamiyatda yangi konstruktiv shakl va elementlar ustida doimo ishlovchi yuqori malakali loyixalovchi muhandislar guruhi ish olib boradi.

Loyihalashtirish zamonaviy uskunalarda ixtisoslashgan kompgpyuter dasturlar yordamida amalga oshiriladi. Zavod o'z ixtiyorida har qanaday og'ir va xajmli buyurtmani o'z vaqtida va yuqori texnik darajada bajarish uchun yetarli ishlab

chiqarish quvvatiga ega. Zavodning umumiy maydoni 4 ga bo'lib, undan 19 ming m² ni ishlab chiqarish binolari egallaydi.

Jamiyat muhandis-texnik jamoasi 30 dan ortiq tajribali mutahassis, konstruktorlar, texnologlar va ishlab chiqarishni tashkil etuvchi hodimlardan iborat. Ishlab chiqarish tsexlari har biri yuk oluvi 5 dan 35 tonnagacha bo'lgan kozlovoy kranlar bilan jihozlangan. Kompaniya tarkibiga quyidagi bo'limlar kiradi:

Tayyorlash hududi – kesish va boshqa tayyorlov ishlari uchun zarur bo'lgan uskunalar bilan jihozlangan: list va fason uchun qaychilar, lenta arra, termik va plazmali kesish uchun sonli dasturiy boshqaruv apparatlari va boshqa uskunalar.

Bo'yoqqa tayyorlov maydoni – qumpurkagichli uskuna bilan jihozlangan;

Bo'yoq maydoni – xavo va xavo bosimisiz bo'yash apparatlari bilan jihozlangan.

TNB – tayyorlash jarayoni va jamiyat tomondan ishlab chiqarilgan har bir metallokonstruktsiya sifatini nazorat qiladi. payandalashdan so'ng quvurlarni payvandlangan choklari defektoskopda kompyuter nazoratidan o'tadi.

Metall va tayyor mahsulot ombori ikkita 7 tonnalik kozlovoy kran va uchta 20 tonnalik ko'prikrani bilan jihozlangan.

Loyihalashtirish va ishlab chiqarishdan tashqari jamiyat metallokonstruktsiyalarni sifatli montaj ishlarini olib boradi. Malakali texnik mutahassislar montaj ishlarini eng qisqa muddat ichida amalga oshiradilar, buning uchun bizda kerakli ixtisoslashgan texnika vositalari mavjud. Montaj sifati uskunani ishlatish muddati va insonlarning xavfsizligi bilan bog'liq, shuning uchun qurilish montaj ishlariga qattiq talab qo'yilgan. Zavod shuningdek nostandart buyumlarni ishlab chiqarishga buyurtma oladi. Ularni ishlab chiqarishda eng masuliyatli ish bosqichi bu konstruktor va loyixalovchilarning ishidir. Zavodning konstruktor byurosini mutaxassilarini tajriba va professionalligi tufayli jamiyat murakkab qurilish metallokonstruktsiyalarini keyinchalik ishlab chiqarish va ishga tushirish uchun loyihalashtirishni amalga oshirmoqda.

Jamiyatda nostandart metallokonstruktsiyalarni polikarbonat, shisha, daraxt va boshqa materiallar bilan birgalikda ishlangan holatda buyurtma berish imkoniyati mavjud.

2.1.1-jadval

“Mexmash” MCHJ ning jami mulki tarkibi to’g’risida ma’lumot

Balansning aktivi	Yil boshiga		Yil oxiriga		Farqi		O’sish surhati
	Ming so’m	Jamiga nisbatan % da	Ming so’m	Jamiga nisbatan % da	Ming so’m	%	%
Asosiy vositalar va oborotdan tashkari aktivlar (qoldiq bahoda)	3466465	8.50	2818600	7.27	-647865	-1.23	81.31
Aylanma mablag’lar shu jumladan;	36597725	89.80	34907553	90.15	-1690172	0.35	95.38
Zahira va harajat	8450029	20.73	11558199	29.85	+3108170	9.12	136.78
pul mablag’lari hisob-kitob va boshqa aktivlar	22470639	55.13	17227344	44.49	-5243295	-10.64	76.66
Jami mulk	40752852	100	38720899	100	-	-	-

Manba:”Mexmash” MCHJ ma’lumotlari asosida tayyorlangan.

2.1.1-jadvalda “Mexmash” MCHJ ning jami mulki tarkibi to’g’risida ma’lumotlar aks ettirilgan. 2013 yil boshida asosiy vositalar va oborotdan tashqari aktivlar yil boshida 3466465 ming so’mni, yil yakunida esa 2818600 ming so’mni tashkil etib, o’tgan yillar orasidagi farq – 647865 ming so’mni tashkil etgan. O’sish surhati esa 81,31 % ga teng. Aylanma mablag’larda ham salbiy tomonga o’sishni ko’rishimiz mumkin, ya’ni aylanma mablag’lar yil boshiga 36597725 ming so’mni, yil oxiriga esa 34907553 ming so’mni tashkil etib, ular orasidagi farq esa –

1690172 ming so'mdir. O'sish surhati esa 95,38 % ni tashkil etgan. Lekin zaxira va harajatlar yil boshiga nisbatan yil oxirida 3108170 ming so'mga o'sgan, o'sish surhati esa 136,78 % ni tashkil etgan. pul mablag'lari, xisob-kitob va boshqa aktivlarda ham kamayish kuzatilgan, ya'ni yil boshiga nisbatan yil oxirida – 5243295 ming so'mga kamaygan. O'sish surhati esa 76,66 % ni tashkil etgan.

2010 yilda korxona tomonidan inkubatorlar ishlab chiqarish o'zlashtirildi. Xajmi 700 dan 1056 tagacha tovuq tuxumi sig'adigan inkubatorlar namlik darajasi, harorat va tuxumlarni to'ntarilishini tartibga solish avtomatik sistemalari bilan jihozlangan. Hozirgi kunda fermer va tadbirkorlar orasida ushbu maxsulotga bo'lgan talab oshib bormoqda.

Mehnat salohiyati holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar uning qanday ahvolda ekanligini ko'rsatadi. Bu ko'rsatkichlarni ham o'rganish va tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. chunki shu ko'rsatkichlar orqali mehnat salohiyati qanday ahvolda ekanligini bilish birga ularning o'zgarish dinamikasini, oboroti va qo'nimsizligi kabi muhim ko'rsatkichlarni ham bilish mumkin. Bozor munosabatlari sharoitida xodimlarning oboroti va qo'nimsizliklari hammuhim ahamiyatga ega, chunki ular ishsizlikningt oldini olish, samaradorlikni oshirish, xodimlar tajribasini oshishini ta'minlash kabi muhim jihatlarni o'zida aks ettiradi.

Sanoat korxonasida ishchi kuchidan foydalanish samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimida ular bilan ta'minlanganlikni harakterlovchi ko'rsatkichlarning alohida o'rni bor, chunkimehnat salohiyati bilan yetarli darajada ta'minlanmasa, har qanday jarayon ham mehyordagidek sodir bo'lmasligi mumkin.

Mehnat salohiyati bilan ta'minlanganlikni ifodalash uchun quyidagi asosiy ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniladi:

Mehnat salohiyati bilan shtat jadvalining ta'minlanganligi.

mehnat salohiyati sig'imi.

mehnat salohiyatining qurollanganligi.

aylanma mablag'larning mehnat salohiyati bilan ta'minlanganligi.

Korxonaga kiritilgan yangi asosiy vositalar hajmidan mehnat salohiyatining o'sish surhati ko'p bo'lgani uchun mehnat salohiyatining qurollanganligi kamaygan bu juda ijobiy holat emas, aylanma mablag'lar bilan ta'minlanganligi ham kamayib ketgan. Bu holat ishchi kuchidan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Sanoat korxonalarida ishchi kuchidan foydalanish samaradorligi, uning natijaviyligi, ya'ni ma'lum vaqt birligida bita hodimga to'g'ri keladigan natija bilan o'lchanadi. Masalan, ishlab chiqarishda bir kishiga to'g'ri keladigan tayyor mahsulot hajmi, bir kishiga to'g'ri keladigan daromad yoki foyda kabi ko'rsatkichlarni kiritish mumkin. Savdo sohasida ham xuddi shunday holatni aytish mumkin. Masalan, tayyor mahsulot o'rniga bu yerda tovar aylanmasi (oboroti) olinadi. Qolgan ko'rsatkichlar nomi bir-biriga to'g'ri keladi.

Ko'rinib turibdiki, mehnat samarasi bu — mutlaq ko'rsatkich, uning samaradorligi esa nisbiy ko'rsatkichlarda o'z ifodasini topgan.

Tahlil jarayonida shuni inobatga olish lozimki, mehnat ham, uning natijasi ham turli ko'rsatkichlarda ifodalanadi. Masalan, mehnat natijasi mahsulot hajmida, daromad yoki foyda summasida ifodalanishi mumkin. Tahlilning maqsadiga qarab ushbu ko'rsatkichlardan birini yoki hammasini natija sifatida qabul qilish mumkin. Xuddi shunday mehnat ham turli ko'rinishda ifodalanadi. Masalan, korxonada band bo'lgan xodimlar umumiy soni, korxonada band bo'lgan ishchilar soni, mutaxassislar, boshqaruv xodimlari, xizmatchilar kabilarni olish mumkin.

SHu tufayli mehnat samaradorligi to'g'risida to'liq va batafsil xulosa qilish uchun uni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimidan (sistemasidan) foydalanish maqsadga muvofiq. Ammo ko'rsatkichlar tizimiga taqriban yondashish, ular tarkibiga nima to'g'ri kelsa shuni kiritaverish mumkin emas. SHu tufayli mehnat samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarni baholash va aniqlash mezonini ishlab chiqish lozim. Bunda mehnat, mehnat resurslari bilan birga ulardan foydalanishda sarflanadigan harajatlar, ish kuchining qiymati, ish haqi kabi tushunchalarni ham

inobatga olish lozim, chunki bozor iqtisodiyoti ko'p va sifatli mahsulot yaratish bilan birga uning tejamliligi bo'lishini ham taqozo qiladi.

“Mexmash” MCHJ korxonasida xodimlarni boshqarish muammosiga ikki xil yondashuv orqali ya'ni, mehnat resurslarini boshqarish va xodimlarni boshqarish orqali yondoshiladi.

Korxonada mehnat resurslarini boshqarish bu boshqarishning strategik jihatlarini, shuningdek, ijtimoiy rivojlanish masalalarini uz ichiga oladi va ularga ustuvorlik beriladi. Xodimlarni boshqarish tushunchasi esa ko'proq kadrlar bilan tezrok ishlashni anglatadi.

Agar birinchi yondashuv davlat mikesida bandlik va uni muvofiqlashtirish vazifalaridan kelib chiqsa, ikkinchi yondashuv bevosita korxona darajasidagi munosabatlari va ularni muvofiqlashtirishdan kelib chiqadi. Xodimlarni boshqarish deganda korxonada band bulgan kishilar salohiyatini rivojlantirish va undan samarali foydalanish, ularning normal faoliyat kursatishi uchun zaruriy shart sharoit yaratish buyicha uzaro bog'langan tashkiliy-iqtisodiy va ijtimoiy tadbirlar tizimi tushuniladi.

Xodimlarni tanlash bu ikki tomonlama jarayondir. Bir tomondan korxona dahvogarni ish bilan ta'minlash yoki ta'minlamaslikni xal kilsa, ikkinchi tomondan dahvogar agar ishga taklif kilinsa, u bu taklifni kabul kilishi kerakmi yoki kerak emasligini hal etadi. Bu jarayonda raxbar kuyidagi holatlarga e'tiborini karatmogi lozim. Dahvogarlarni ayniksa, o'zi to'g'risidagi qisqacha ma'lumot takdim etganlarini urganish uchun iloji boricha barcha tadbirlarni kurmok kerak. Berilgan tavsiyalarga ortikcha ishonavermay, o'zingiz shaxsan surishtirib bilganingiz mahkul. Ancha ochik fikr olish uchun nomzodning sobik ish beruvchisiga ko'ng'irok kilish yoki u bilan shaxsan uchrashish lozim. O'sha rahbarning mazkur xodimdan ajralayotganiga qanday qarayotganini e'tibor bilan kuzatish kerak.

Har bir dahvogarni oilaviy xotirjamligini surishtirib ko'rish lozim.

Birinchi navbatda shuni ta'minlamoq kerakki, ishga qabul qilinayotgan odam muzokaralar chog'ida o'zining bo'lajak ishini barcha xususiyatlarini tasavvur qilsin, kelgusida kutilmagan hollarga yo'liqmasin.

“Mexmash” MCHJ korxonasining boshqaruvchisi doimiy tarzda korxona mehnat salohiyatini nazorat qilishi va uni to'g'ri boshqarishni yo'lga quyishi maqsadga muvofiqdir. Bu jarayonda - ko'zda tutilgan ishni (faoliyatni) ma'lum bir vaqtda bajarishga qodir bo'lgan turli malakaga ega barcha ishchi va xizmatchilar majmuasidir. Tahlil qilish uchun uni natural va qiymat ko'rsatkichlarida ifodalash lozim. Bu uning tarkibida namoyon bo'ladi. Mehnat salohiyatini baholash va tahlil qilish uchun ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniladi. Bu ko'rsatkichlar iqtisodiy jihatdan turli guruhlariga mansub, chunki mehnat salohiyatining u yoki bu jihatlarini ifodalaydi.

Ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, mehnat salohiyati holatini ifodalovchi va u bilan bog'liq ko'rsatkichlar ko'rsatkichlar juda notekis o'zgarishga uchragan. Masalan mehnat salohiyatining o'rtacha yillik soni ortgan, shu jumladan ishchilar soni ham ortgan. Oliy ma'lumotli mutaxassilar soni va ulushi ortgan. Bu esa xodimlar malaka darajasini ortganligini bildiradi. Xodimlar oboroti va qo'nimsizligining kamayishining oqibatida mehnat salohiyati turg'unligi ortgan.

2.1.2-jadval

“Mexmash” MCHJ xodimlarining soni va o'zaro nisbati tahlili

№	Xodimlar tarkibi	2011 yil		2012 yil		2013 yil		2013 yil-ning 2011 ga nisbati
		kishi	%	kishi	%	kishi	%	
1	Asosiy ishlab chiqarish xodimlari	75	83,3	63	84,0	67	82,7	89,33
2	Yordamchi ishlab chiqarish xodimlari	5	5,6	4	5,3	6	7,4	120,0
3	Injener-texnik xodimlar	6	6,7	5	6,7	5	6,2	83,33
4	Ma'muriy boshqaruv xodimlari	4	4,4	3	4,0	3	3,7	75,00
Jami		90	100	75	100	81	100	

Manba: “Mexmash” MCHJ ning yillik hisobotlari asosida ishlab chiqilgan.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, 2011 yilda korxona faoliyatida jami xodimlar soni 90 kishini tashkil etgan holda, asosiy ishlab chiqarish xodimlari 75 kishini tashkil etgan. Mahmuriy boshqaruv xodimlari 4 kishidan iborat bo'lib, bular bosh direktor, 2 ta direktor o'rinbosarlari va bosh hisobchi hisoblansa, injener-texnik xodimlar 6 kishini tashkil etadi, yordamchi ishlab chiqarish xodimlari 5 kishini tashkil etgan.

2013 yilda esa mavjud xodimlarning 67 nafari asosiy ishlab chiqarish xodimlarini, 3 nafari mahmuriy boshqaruv xodimlarini, 5 nafari injener texnik xodimlarni, shuningdek 6 nafari yordamchi ishlab chiqarish xodimlarini tashkil etgan. E'tiborlisi, mahmuriy boshqaruv xodimlarini qisqartirish natijasida 2 ta direktor o'rinbosari lavozimidan biri qisqartirilgan.

2.1.3-jadval

**Mehnat salohiyati holatini ifodalovchi ko'rsatkichlarni
aniqlash hisob-kitobi**

Ko'rsatkichlar	2011 yil	2013 yil	Farqi (+,-)	O'zgarish surhati, %
1. Mehnat salohiyatining o'rtacha yillik soni, kishi	90	81	-9	90,0
2. SHu jumladan, oliy ma'lumotli mutaxassilar, kishi	12	14	+2	116,6
3. Ishga qabul qilinganlar, kishi	10	11	+1	110,0
4. Ishdan bo'shatilganlar, kishi	25	6	-19	24,0
5. shu jumladan, salbiy asoslar bilan bo'shatilganlar, kishi	2	2	-	-
6. Kadrlar qo'nimsizligi koeffitsienti	0.16	0.08	-0.08	-

Manba: Korxona hisobotlari asosida ishlab chiqilgan.

Korxonada xodimlar soni 2012 yilda 2011 yilga nisbatan 15 taga kamaygan bo'lsa, yil davomida 25 nafar xodim turli sabablarga ko'ra, ishdan bo'shatilgan.

SHu bilan bir qatorda 10 nafar xodim ishga qabul qilingan. Natijada yil oxiriga kelib xodimlar soni umumiy holatda yil boshiga nisbatan 15 nafarga kamaygan.

2013 yilga kelib, 11 nafar ishchi-xodimlar ishga qabul qilingan. Ishdan bo'shatilganlar soni esa kamaygan, ya'ni 6 nafarni tashkil qilgan.

Sanoat korxonasida ishchi kuchi salohiyatidan samarali foydalanish, mulkchilik shaklidan qathi nazar, barcha xo'jalik yurituvchi subhektlar uchun o'ta muhimdir. Chunki mehnat qancha samarali bo'lsa, iqtisodiy ko'rsatkichlar shuncha yuqori bo'ladi. Ko'rinib turibdiki, korxonada mehnat salohiyati samaradorligi ko'rsatkichlari yuqorida darajada emas.

Xodimlarning ishga kelishi va sarflangan ish vaqtini hisobga olish mehnat intizomini yanada mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Ish kunining necha soat davom etishi korxona maxmuryati tamonidan kasaba uyushmasi bilan kelishilgan holda belgilanadi. Sarflangan vaqt hisob tabel asosida yuritiladi. Har bir xodimga tabel rakami biriktiriladi va u mehnat, ish xaqi bo'yicha rasmiylashtiriladigan barcha hujjatlarda ko'rsatib boriladi.

Hisobot davri boshlanishidan avval o'tgan oydagi tabeldan xodimning ism-sharifi ko'chirib yoziladi va ishga chiqish, ish vaqtini sarflashi shiartli belgilar yordamida hisobga olib boriladi. Masalan safarga kitgan «S», mehnat tahtilidagi xodimlar «O» harfi va xaqazolar bilan belgilanadi.

Ishga chiqish va ish vaqtdan foydalanish hisob taabelda ikki xil usulda amalga oshiriladi. Birinchi usulda barcha ishga chiqkan, kechiqkan, biror sababga kura ishga chiqmaganlar tulik ruyxat kilib boriladi. Ikkinchi usulda esa tabelda faqat kechikkanlar, ishga chiqmaganlar, ya'ni ma'lum mehyordan chetga chiqqan xodimlar ro'yxat qilib boriladi. Har bir xodimning ishlagan vaqti tabel hisobot oyining birinchi yarmiga va oy oxiriga, ya'ni ikki marta hisoblab chiqiladi. Tabel bo'lim yoki tsex boshligi tamonidan imzolanadi, so'ngra tabelchi tamonidan buxgalteriyaga ish xaqi hisoblash uchun topshiriladi.

Ishbay mehnat xaqi shaklida xaq hisoblashda tabel hisob ma'lumotlari yetarli emas. Buning uchun ularga ishlab chiqargan mahsulotning soni, sifati yoki

bajargan ish xajmi va bir mahsulotga to'lanishi lozim bulgan ishbay narxi ma'lum bo'lishi kerak. Ishbay ishlovchi tamonidan ishlab chiqarilgan mahsulot yoki bajarilgan ish xajmi turli korxonalarda bir xil bo'lmagan hujjatlarda rasmiylashtiriladi. U yoki bu hujjatning qo'llanilishi korxonaning kaysiishlab chiqarish turiga tegishliligiga bog'liq. Ishlab chiqarishning individual va mayda seriyali xiliga mansub korxonalarda ishlab chiqarish T-40 sonli shakldagi topshirik (naryad) larda rasmiylashtiriladi.

Kupchilik korxonalarda naryad ayrim ishchi yoki brigada tamonidan bajariladigan har bir ishlab chiqarish topshirigiga aloxida yoziladi. Bunday tartib boshlangich hujjatlar sonining oshishiga va ularin kayta ishlash jarayoni bilan bog'liu bulgan hisob ishlarining murakkablashishiga olib keladi. SHuning uchun ham bir yoki ikki xaftalik, oylik muddatda yoziladigan kup katorli topshiriklarni kullash talab kilinadi. Topshiriklar tsexning reja-dispatcher byurosi tamonidan tsexning ishlab chiqarish rejasiga muvofik texnologik karta asosida tuldiriladi. Ishchi va brigada tamonidan topshirik bajarilgandan keyin ishlab chiqarilgan mahsulot soni yoki bajarilgan ish xajmi bajarish uchun sarflanishi lozim bulgan material mehyori va xaqikatdan berilgan materialning soni topshirikda ko'rsatiladi. Bu, uz navbatida, ish xaqini topshirik asosida hisoblashgina emas, balei materiallar sarfining belgilangan mehyoriga rioya kilinishi ustidan nazorat olib borish imkonini ham beradi. Bu tizimning nuksonlaridan biri shundaki, unda ayirim bajarilgan ishlab chiqarish topshiriklari aks ettiriladi, ammo u butun bir texnologik jarayonning borishi ustidan nazorat kilishga moslashtirilmagan.

Maxsulot, detallarni kayta ishlash jarayon, odatda bir smenadan oshmaydigan ishlab chiqarishning seriyali xili sharoitida ishlab chiqarish hisob T-22 rakamli shakldagi yoki boshqa shakllardagi raportlarda yuritiladi. Rapotr ish smenasi boshlanmasdan avval yoziladi va zarur detallarni tsexga jo'natish uchun omborchiga topshiriladi. Omborchi detallarni junatib, bu xaqida raportga tegishli belgi kuygandan keyin, u texnika nazorat bo'limiga beriladi. Smena oxirida qayta ishlangan detallar soni raportda kayd kilinadi.

Ishlab chiqarishning seriyali xilidagi ba'zi korxonalarda ishlab chiqarish hisob T-23 rakamli shakldagi marshrut varakalari tizimda yuritiladi. Odatda marshrut varakalari tsexning reja-dispatcher xodimlari tomonidan yozilib, unda kayta ishlanishi lozim bulgan ayrim detallar partiyasi ishlab chiqarish topshirigi sifatida kayd kilinadi, bajarilgan ish natijalari kayta ishlash jarayonining birinchisidan tortib to oxirgi operatstiyasigacha nazorat kilinadi. SHunday kilib, marshrut varakalari yordamida texnologik jarayoning borishi nazorat kilinadi. Bu esa ularning afzalliklaridan biridir.

Bajarilgan ish texnika nazorat bo'lim xodimlari tomonidan kabul kilinib, marshrut varakalarida ko'rsatiladi. Nazoratchi bu paytda kayta ishlash uchun berilgan detallarning sonini kabul kilinganlari bilan solishtiridi va aniqlangan har bir kamomatni marshrut varakalarida kayd etadi, bu esa ishlab chiqarishda detallar harakati ustadan nazorat olib borish imkonini beradi.

Ishlab chiqarishning ommaviy xiliga mansub bulgan korxonalarining xususiyatlaridan biri shundaki, ularda ishchilar asosan bir xil operatsiyani bajaradilar. Bunday sharoitda ishlab chiqarish topshirigini har bir ishchiga yetkazish zaruriyati yukoladi. Ishlab chiqarish hisob xaftalik, o'n kunlik, yarim oylik, oylik hujjatlarda yuritiladi.

Ba'zi vaqtlarda u yoki bu sabablarga ko'ra mehyoriy holatdan chetga chiqish hollari ham yuz beradi. Masalan, tegishli uskunalarining bo'lmasligi, ularni uskunaning boshqa turi bilan almashtirish, materiallarning zaruridan ottikcha kattikligi va boshqalar. Bunday holatlar qo'shimcha ish vaqtining sariflanishini takazo kiladi va qo'shimcha xaq varakalari bilan rasmlashtiriladi. U yoki bu sababga kura unimsiz sariflangan ish vaqti, mahsulotlar akt bilan rasmiylashtiriladi.

2.2. "MEXMASH" MCHJ da raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish holati tahlili.

Jamiyat tomonidan prezidentimiz I.A.Karimov ma'ruzalaridan hamda inqirozga qarshi choralar dasturida belgilab berilgan vazifalardan kelib chiqib,

mahsulot tannarxini pasaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni, bu borada fan-texnika taraqqiyoti yutuqlaridan foydalanishga va ularni amaliyotga joriy etishga harakat qilib kelmoqda. Korxonaning ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyati asosan keng istehmolchilar guruhlari va aholiga sifatli ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishlar bilan ifodalanadi. Korxonada ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatining samaradorligi mavjud imkoniyatlardan to'laqonli foydalanish hamda istehmolchining talabi bilan bog'liqdir.

Bugungi kunda korxona 30 turdagi sport tovarlari ishlab chiqarmoqda. Ishlab chiqarilayotgan tovarlarni raqobatbardosh qilish maqsadida, ishlab chiqarish vositalaridan foydalanishga e'tiborni kuchaytirish, yangi texnologiyalarni harid qilish muhim ahamiyatga egadir. Bu esa, mahsulot sifatini oshirish, mahsulot tannarhini kamaytirishda korxonaning asosiy maqsadlaridan biri deb qarash kerak. Bu borada foydalanilayotgan asbob-uskunalarining ishlab chiqarish quvvatini muhim bo'lib, korxonada Rossiya va boshqa mamlakatlardan keltirilgan quyidagi asbob-uskunalaridan samarali foydalanilmoqda.

2.2.1-jadval

“Mexmash” MCHJ ning daromadlari to'g'risida ma'lumot (ming so'm)

№	Ko'rsatkichlar	2013 yil	2014 yil	2014 yilda 2013 yilga nisbatan o'zgarish (+;-)
1	Maxsulotlarni sotishdan sof tushum	4854854,8	1282237,9	-3572616,9
2	Maxsulotlarni sotishdan yalpi foydasi	2349248,6	583054,9	-1766193,7
3	Asosiy faoliyatning boshqa daromadlari	15634,0	99933,0	+84299
4	Asosiy faoliyatning foydasi	2154103,1	190017,2	-1964085,9
5	Moliyaviy faoliyatning daromadlari	14166,8	50739,3	-1365868,7
6	Divedendlar shaklidagi daromadlari	27,0	6,8	-20,2
7	Foiz shaklidagi daromadlari	0,0	1743,5	+1743,5
8	Valyutaning kurs	14106,0	33600,0	+19494

	farqidan daromadlari			
9	Daromad solig'i to'langunga qadar foyda	2149501,7	235869,5	-1913631,5
10	Xisobot davrining sof foydasi	1808414,4	160641,5	-1647772,9

Manba: "Mexmash" MCHJ ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

Jadvalda "Mexmash" MCHJ ning daromadlari to'g'risida ma'lumot aks ettirilgan. Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'radigan bo'lsak, 2014 yilda jamiyat asosan foiz shaklidagi, valyuta kursi farqidan, asosiy faoliyatning boshqa daromadlari hisobiga o'z daromadlarini oshirgan. Lekin jamiyatning asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari bo'lgan maxsulotlarni sotishdan sof tushum, maxsulotlarni sotishdan yalpi foydasi, asosiy faoliyatning foydasi kabi ko'rsatkichlar bo'yicha o'z daromadlarini o'tgan yillarga nisbatan oshira olmagan.

2.2.2-jadval

"Mexmash" MCHJ ning harajatlari to'g'risida ma'lumot (ming so'm)

№	Ko'rsatkichlar	2013 yil	2014 yil	2014 yilda 2013 yilga nisbatan o'zgarish (+;-)
1	Sotilgan maxsulotlarning tannarxi	2505606,2	699183,0	-1806423
2	Davr harajatlari	210779,5	492970,7	+2821912
3	Sotish harajatlari	68426,6	34342,6	-34084
4	Mahmuriy harajatlari	76455,5	301226,8	+235329,4
5	Boshqa operatsion harajatlar	65897,4	157401,3	+91503,9
6	Moliyaviy faoliyat bo'yicha harajatlar	18768,2	4887,0	-13881,2
7	Foiz shaklidagi harajatlar	0,0	4887,0	+4887,0
8	Daromad solig'i	341087,3	75228,0	-265859,3

Manba: “Mexmash” MCHJ ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

Jadvalda “Mexmash” MCHJ ning harajatlari to’g’risida ma’lumotlari aks ettirilgan. Jamiyat o’z faoliyatini olib borish davrida ko’plab ko’rsatkichlar bo’yicha o’z harajatlari kamaytira olgan. Sotilgan maxsulotlarning tannarxi 2013 yilda 2505606,2 so’m, 2014 yilda 699183,0 so’mni tashkil etgan. O’tgan yilga nisbatan tannarx 1806423 so’mga kamaygan.

Jamiyatning davr harajatlari esa 2013 yilda 210779,5 so’mni, 2014 yilda esa 492970,7 so’mni tashkil etgan. O’tgan yilga nisbatan esa davr harajatlari 2821912 so’mga ko’paygan. SHuningdek mahmuriy jarajatlar va foiz shaklidagi harajatlari ham biroz ko’payganini ko’ramiz.

“Mexmash” MCHJ da mehnatga haq to’lash va ish haqi fondining sarflanishini ko’radigan bo’lsak, quyidagi jadvalga e’tiborni qaratamiz (2.2.3-jadval).

2.2.3-jadval

“MEXMASH” OAJ da moliyaviy natijalar to’g’risida ma’lumot

№	Asosiy iktisodiy moliyaviy ko’rsatkichlar	O’lchov birligi	2012 yil	2013 yil	2014 yil
1	Maxsulot sotishdan tushum	Mln so’m	20034,89	23424,76	39651,14
2	Sof foyda	Mln so’m	789,56	1646,64	4845,61
3	Jami maxsulot ishlab chikarish	Mln so’m	19038,70	26955,64	40142,73
4	Bir kishi xisobiga o’rtacha mexnat unumdorligi	Mln so’m	211,54	359,41	495,59
5	O’rtacha rentabellik darajasi	%	3,9	7,0	12,2
6	Ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi	%	71,9	66,7	67,1
7	O’rtacha ishlovchilar soni	kishi	90	75	81
8	Jami yillik ish haqi fondi	Ming so’m	491508,0	515070,0	632286,0
9	O’rtacha oylik ish haqi	Ming so’m	455,1	572,3	650,5

Manba: “Mexmash” OAJ ma’lumotlari asosida tayyorlangan.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, korxona 2012-2014 yillarda iqtisodiy o'sishga erishgan. 2014 yilda korxonada mahsulot sotishdan tushgan tushum 39651,14 mln. so'mni tashkil etgan. Bu esa 2013 yilga nisbatan 16226,38 mln. so'mga, 2012 yilga nisbatan esa 19616,25 mln. so'mga ortiq demakdir. Sof foyda esa 2014 yilda 4845,61 mln. so'mni tashkil etgan va 2012, 2013 yillarga nisbatan o'sishga erishilgan.

MCHJ da mehnatga xaq to'lash borasida ham ijobiy o'zgarishlar ko'zga tashlanmoqda. Ishchi-xodimlarning mehnat unumdorligini ortishi hamda ish haqlarini muntazam oshirib borilishi natijasida korxonada ishchilarning mehnatga bo'lgan munosabatlari ham o'zgarmoqda.

Mexnat va ish xaqini hisoblash bo'yicha rasmiylashtiriladigan boshlang'ich hujjatlar belgilangan muddatda buxgalteriyaning ish xaqini hisoblash bo'limiga topshiriladi. Boshlang'ich hujjatlar buxgalteriya xodimlari tomonidan tekshiriladi, so'ngra kayta ishlash uchun mashina-hisoblash byurosiga yoki mashina-hisoblash stantsiyalariga yuboriladi. Boshlang'ich hujjatlarni kayta ishlash deyilganda ishchining bajargan ishini ishbay narxiga kupaytirish yul bilan ish xaqini hisoblash tushuniladi. Kayta ishlangan hujjatlar, ishchilarning tabel rakamlari buxgalteriyada tsexlar bo'yicha guruxlanadi va ishchining ish xaqi uning shaxsiy schyoti yoki varakalariga yozib boriladi. Ish xaqi va boshqa hisob ishlari hisoblash mashinalari yordamida bajariladigan korxonalardi kayta ishlangan boshlang'ich hujjatlardagi ma'lumotlar asosida quyidagilar tuziladi:

- 1) hisoblash vedomosti;
- 2) hisoblangan ish xaqining ishlab chiqarish schyotlari va harajat moddalari o'rtasida taksimlash vedomosti;
- 3) ish xaqi sarifi bo'yicha mehyordan chetga chiqish vedomosti va boshqalar.

Korxona faoliyatini taxlil qilish natijasida faqatgina erishilgan yutuqlarga ijobiy baho berish bilan chegaralanmasdan, iqtisodiy samaradorlik darajasini oshirish yo'llari va imkoniyatlarini ham aniq hamda ravshan belgilab olish zarur.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, korxona iqtisodiy faoliyatining vazifalarini quyidagicha ifoda qilish mumkin:

1. Ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish dinamikasini muntazam o'rganib berish;
2. Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish rejasining bajarilishini qathiy nazoratga olish;
3. Ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish xajmining o'zgarishiga tahsir etuvchi ko'rsatuvchi omillarni aniqlash;
4. Mahsulot xajmini ko'paytirish uchun mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish;
5. Aylanma mablag'lar aylanishini tezlashtirish;
6. Buyurtmachi va haridorlarga mahsulot va xizmatlar sifatini yaxshilash;

Taxlil natijasida aniqlangan kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etish xamda foydalanilmagan ichki imkoniyatlardan unumli foydalanish.

III-bob. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida sanoat korxonalari mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish yo'nalishlari

3.1. Sanoat korxonalari mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirishda fan-texnika yutuqlaridan samarali foydalanish imkoniyatlari

Hozirgi davrning eng muhim o'ziga xos xususiyatlaridan biri – bu milliy iqtisodiyotning barcha sohalarda chuqur keskin o'zgarishlar hosil qilayotgan fan va texnikaning shiddatli rivojidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov «Kadrlar tayyorlash milliy dasturini ishlab chiqish» komissiyasining 1997 yil 5 – iyunida bo'lib o'tgan majlisida shunday degan edi: «Fan – bu taraqqiyotni anglatadi. Ilm-fanni rivojlantirmay Vatan kelajagi to'g'risida gapirish qiyin».

Fan-texnika taraqqiyoti – bu juda murakkab va ko'p qirrali jarayondir. U ijtimoiy va shaxsiy hayotning hamma tomonlarini o'z ichiga oladi. SHu sababli ham fan-texnika taraqqiyoti harakatdagi jarayon hisoblanadi.

Texnika taraqqiyotining asosini fan, ilmiy bilimlar tashkil etadi. Yuqorida aytilganlardan shunday savol tug'ilishi mumkin: Fan nima?

Fan – bu inson faoliyatining ma'lum sohasi. U shunday sohaki, voqea-hodisalar haqidagi bilimlar yaratiladi va ular nazariy nuqtai nazardan bir yo'lga solinadi. Fan ijtimoiy fikrlash va bilishning shakllaridan biridir.

Fan yoki ilm – bu o'qish, o'rganish va hayotiy tajriba asosida fikrlanadigan bilim va malakalar majmuasidir. Uning asosiy vazifasi avvalo voqea va hodisalarni, shu jumladan, texnik va texnologik hodisalarni tasvirlash, keyin tushuntirish, oldindan aytib berish, bashorat qilishdan iboratdir.

Endi texnika va texnologiya nima degan savolga javob topish kerak.

Texnika – bu eng tor mahnoda mehnat quroli, mehnat vositasi. Keng mahnoda esa u ishlab chiqarish vositalari, texnologiya usullarini, ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish shakllarining yig'insidir. U ishlab chiqarish kuchlarining eng faol elementi hisoblanadi.

Texnologiya (yunoncha “techue“ – sanhat, mahorat, uddalash va ...logiya) – ishlab chiqarish jarayonida tayyor mahsulot olish uchun ishlatiladigan xomashyo, material yoki yarim fabrikatlarning holati, xossasi va shakllarini o'zgartirish, ularga ishlov berish, tayyorlash usullari majmuidir.

Fan-texnika taraqqiyoti juda murakkab jarayon bo'lib, ijtimoiy va shaxsiy hayotning barcha tomonlarini o'z ichiga qamrab oladi.

Fan va texnikani bir biridan faqat shartli ajratib ko'rish mumkin. Aslida esa ular yonma-yon turadi. SHu sababli “Fan-texnika“ atamasi ko'p ishlatiladi.

Fan-texnika taraqqiyotining asosini ilmiy bilimlar tashkil etadi. Ilm va bilim asosida yangi texnika va texnologiya yaratiladi, eskilari esa takomillashadi.

Fan-texnika taraqqiyoti – bu mehnat vositalarini, ishlab chiqarishning eng yangi xomashyosi va materiallarini, yoqilg'i va energiyaning, texnologik jarayonning, boshqarishning, mehnatni texnik jihatdan qurollantirish va yuqoridagilarning hammasini yangidan yaratishni o'z ichiga oladi. Ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo'lgan ishlovchilarning umumiy ma'lumotini, mahoratini uzluksiz sistematik rivojlantirish va takomillashtirish ham fan-texnika taraqqiyotining mohiyati va ahamiyati bilan chambarchas bog'liqdir.

Yuqorida keltirilgan fikr va mulohozalar umumjamiyat miqyosida, xalq xo'jaligi, uning tarmoqlari, korxona (firma)larda va tashkilotlar miqyosida ham hisobga olinishi mumkin.

Fan-texnika taraqqiyotining vazifasi quyidagilardan iborat:

- tejamkorlikni amalga oshirish (vaqtni, xomashyo va materiallarni, yoqilg'i, elektr energiyasi va h.k. larni tejash);
- ishlab chiqarish jarayonlarini osonlashtirish, mehnatni yengillashtirish;
- mehnatning mazmuni va xarakterini o'zgartirish;
- ishlab chiqarishning ijtimoiy va iqtisodiy samaradorligini yanada yuqori darajaga ko'tarish.

Fan va texnikaning roli shu qadar kattaki, bironta ijtimoiy-iqtisodiy vazifa ularning rivojlanishi hisobga olinmasdan turib hal qilinishi mumkin emas.

Respublika Prezidenti I. Karimovning asarlarida, mahruza va suhbatlarida, Oliy Majlis qonunlarida, Vazirlar Mahkamasi qarorlarida, olimlarning ilmiy-amaliy tadqiqotlarida fan-texnika taraqqiyotining tavsiflovchi g'oyat mukammal formulalari tahriflab berilgan.

Mustaqillikni mustahkamlash, kelajagi buyuk davlatni qurish, iqtisodiy o'sishni izchil olib borish, ishlab chiqarish taraqqiyotini tezlashtirishni ilm-fansiz mutlaqo tasavvur qilib bo'lmaydi. Demak, hamma joyda, hamma vaqtda fan-texnika taraqqiyoti tomon olg'a siljimoq kerak bo'ladi.

O'zbekiston Davlatining fan-texnika siyosati davlat va nodavlat tashkilotlari, mehnatkashlar jamoalari, iqtisodiy, ijtimoiy, tashkiliy va tarbiyaviy chora-tadbirlarining, harakatlarining tizimi bo'lib, bular fanni rivojlantirish uchun, uning yutuqlarini yangi texnika va texnologiyada mujassamlashtirish hamda ana shu negizda mamlakat ishlab chiqaruvchi kuchlarini sifat jihatidan og'ishmay takomillashtirib borish uchun qulay sharoitlar yaratishga qaratilgandir. Fan-texnika siyosatining mohiyati ana shundan iborat.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida fan-texnika siyosati umumdavlat siyosati sifatidagina samarali amalga oshirilishi mumkin bo'lib, uning butun tarkibiy qismlari, shuningdek, uni amalga oshirishda ishtirok etuvchilarning butun faoliyati strategik maqsadga bo'ysundirilgan.

Fan-texnika taraqqiyotining mazmuni va maqsadlarini davlat iqtisodiy siyosatining mushtarak (umumiy) vazifalari, shuningdek, bozor iqtisodiyotining u yoki bu bosqichining aniq tarixiy sharoitlari belgilab beradi. Fan-texnika rivoji darajasini, bu borada hal etiladigan vazifalarni chuqur ilmiy umumlashtirish asosida davlat fan-texnika taraqqiyotining asosiy yo'nalishlarini tahriflaydi hamda ularni amalga oshirish uchun optimal shart-sharoitlarni ta'minlovchi tadbirlar ishlab chiqadi.

Fan-texnikani rivojlantirish haqida doimo tashabbus ko'rsatgan Respublika Prezidenti I.A.Karimovning fan arboblari va muhandis-texnik xodimlarning faoliyati tufayli mustaqillik yillarida qudratli fan-texnika potentsiali yaratildi. O'nlab ilmiy-

tadqiqot institutlari va oliy o'quv yurtlari, yuzlab lohiya-konstruktorlik tashkilotlari tadqiqotlar olib bormoqdalar, yangi texnika va texnologiyalarni yaratmoqdalar. Hozirgi ilmiy-tadqiqot institutlari eng mukammal texnika bilan jihozlangan va yuksak malakali ilmiy kadrlar qotishmasidan iboratdir.

Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojini yuqori darajaga ko'tarish fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirishni yanada izchil, yanada qathiyat bilan talab qiladi. Ayni chog'da ilmiy-texnika rivojining yutuqlarini ishlab chiqarishda ro'yobga chiqarish mexanizmini takomillashtirish hozirgi bosqichda fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirishning hal qiluvchi omili ekanligi davlat siyosatining eng muhim qoidasi hisoblanadi. Ana shu mexanizmni takomillashtirish fan-texnika taraqqiyotini tashkil etish va boshqarish, rejalashtirish va prognozlash, mablag' bilan ta'minlash va rag'batlantirish kabi elementlarni o'z ichiga oladi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida fan-texnika taraqqiyotining uchta asosiy yo'nalishidan foydalanish mumkin:

- a) anhanaviy yo'nalish;
- b) zamonaviy yo'nalish;
- v) istiqbolli, ustuvorlik yo'nalishlar.

Anhanaviy yo'nalishga elektrlashtirish, mexanizatsiyalash, qisman avtomatlashtirish, ximiyalash kiradi.

Zamonaviy yo'nalishga elektronizatsiyalash, kompleks mexanizatsiyalash, kompleks avtomatlashtirish (robotlashtirish, kompg'yuterlashtirish), atom energetikasini jadal rivojlantirish, yangi materiallarni ishlab chiqarish va ularga ishlov berish, hozirgi davr talabiga javob beradigan texnologiyalarni qo'llash, undan foydalanishda texnologiyaning ekologiyaga salbiy ta'sirini kamaytirish, imkoni bo'lsa butunlay yo'qotish yo'llari kiradi.

Afzallik, ustuvor yo'nalishlarga quyidagilar kiradi:

- elektronizatsiyalash, biotexnologiyani keng joriy etish, iqtisodiy informatikani ko'paytirib, rivojlantirib, ishlab chiqarishni to'la axborotlashtirish, fundamental fanlar bo'yicha izlanishlarni kuchaytirish;

- yangi, ilg'or (progressiv) texnologiyalarni joriy etish;
- texnika va texnologiya, elektr energiyasi va yoqilg'ilarning, xomashyo va materiallarning eng yangi turlarini yaratish;
- mavjud mashina va mexanizmlarni, asbob-uskuna hamda jihozlarni modernizatsiyalash kiradi.

Bozor iqtisodiyotiga kirib borish munosabati bilan ilm-fan sohasiga juda ko'p atamalar (terminlar), tushunchalar kirib kelmoqda. Masalan, "Nau-xau", innovatsiya, lizing, texnopolis, venchur, injinering, tender va h.k.

"Nau-xau" – bu texnik, tashkiliy-iqtisodiy, tijorat bilimlari va tajribaning yig'indisi bo'lib, almashish predmeti hisoblanadi. "Nau-xau" tipidagi axborot (informatsiya) raqobatli ishlab chiqarishning, savdoning omili sifatida ro'y berishi mumkin. "Nau-xau"ning eng xarakterli, tavsifiy tomoni – bu texnik bilimlarning yangiligida va aniq ishlab chiqarish va tijorat vazifalarini bajarish uchun foydaliligidadir. Uni amalga oshirishda shartnoma tuziladi: har xil chizmalar, loyihalar, smeta (bo'ladigan kirim-chiqim hisobi), texkartalar, metodikalar (biror narsaga o'rgatish usullari), formulalar (shartli belgilar bilan ifodalangan matematik miqdorlar), texnik ma'lumotlar va h.k. tanishtiriladi. Eksporter bu ma'lumotlarni yetkazib beradi, importer esa qabul qilib oladi.

Innovatsiya – iqtisodiyotga mablag' solish jarayoni. Yangilikni joriy etish: birinchidan, texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta'minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag'lar bo'lsa; ikkinchidan esa, ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlari natijalari bo'lgan yangi texnika va texnologiya. Ixtirochilikning rivojlanishi, biror yo'nalishdagi yirik ixtiro va kashfiyotlar maydonga kelishi innovatsiyaning muhim omillari hisoblanadi.

Lizing – mashina, asbob-uskuna, transport vositalari, ishlab chiqarish inshootlarini uzoq muddatli ijaraga olish; uzoq muddat foydalaniladigan tovarlar eksportini kreditlash shakllaridan biri. Lizingning asosan moliyaviy va oddiy turi mavjud.

Moliyaviy lizing muayyan muddatda ijaraga beruvchining kapital xarajatlarini to'liq qoplashga yetarli to'lovlardan iborat bo'lib, mulk egasiga bir miqdor foyda ham beradi.

Oddiy lizing – ijara davrida ijaraga olingan mulk qisman amortizatsiyalanadi. Lizing kompaniyasi asbob-uskunalar sotib olib, ularni ijarachi firmaga odatda bir yildan 10-15 yilgacha ijaraga beradi. Lizingda ijarachining shartnoma muddati tugagandan so'ng asbob-uskunalarini qoldiq qiymat bo'yicha sotib olish (bu holda egalik huquqi yangi sohibga o'tadi); yangi kelishuv asosida shartnoma muddatini cho'zish; moddiy boyliklarni lizing kompaniyalariga qaytarish va boshqalar ko'zda tutilishi mumkin. Tomonlar lizing shartnomasida ko'rsatilgan davr mobaynida uni buzishga haqi yo'q. Lizing kompaniyalari mashina va uskunalar sotib olish uchun shaxsiy va qarzga olingan mablag'lardan foydalanadilar. Davlat odatda, ularga qarz olishlari uchun imtiyozli sharoitlar yaratib beradi.

Venchur – kichik biznesning bir turi. Uning mohiyati ilmiy-muhandislik ishlari, yangi texnika, texnologiya, tovar namunalari yaratish, ishlab chiqarishni boshqarish, tijorat ishini tashkil etish usullarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish, yirik firmalar va davlat ijara kontrakti buyurtmalarini bajarishdan iborat. Bu ishlar bilan “Venchur korxonalar“ shug'ullanadi. Ular tarkibida tijoratda vositachi bo'lgan korxonalar ham bo'ladi. Venchur korxonalar texnikaning yangi yo'nalishlarida ish ko'rib, fan-texnika taraqqiyotiga katta hissa qo'shadilar. Ular venchur moliyalashtirishda ham faol qatnashadilar va moliyaviy mablag' to'plab, uni ishga soladilar.

Injinerling (injinerlik – maslahat xizmatlari) – tijoratchilik qoidalariga asoslangan injinerlik – maslahat xizmatlari; ishlab chiqarishni ta'minlash, mahsulot sotishni uyushtirish, ishlab chiqarish ob'ektlarini qurib, ishga tushirish yuzasidan maslahat berish. Bu ish bilan injinerling firmalari shug'ullanadi, ular mustaqil firma sifatida bir vaqtning o'zida bir necha mijozlarga xizmat qiladi. Eksport injinerling firmalari boshqa mamlakatlarga xizmat ko'rsatadi. Ular chet eldagi ilmiy g'oyalar va texnik ishlanmalar bozorida litsenziya sotadi, texnik yangiliklarni xorijda joriy etadi.

Injineriing kompaniyalari daromadi ko'rsatilgan injineriing xizmatiga bog'liq bo'ladi. Xalqaro injineriing xizmati ishning texnik-tashkiliy va tijorat tomonlari ko'rsatilgan kontrakt shaklida rasmiylashtiriladi, mohiyati bilan muayyan xizmatlarga buyurtmaning bir ko'rinishidir. Injineriing xizmatlari bozori – xalqaro bozorning bir turi, injineriing xizmatlarining davlatlararo oldi-sotdi qilinishidir.

Tenderlar – bozorda yoki xalqaro bozorda mashina va uskunalarni xarid etish, qurilish-montaj ishlarini bajarish, injineriing xizmati ko'rsatish uchun konkurs asosida buyurtma berish. Xaridor yoki buyurtmachi eng avval konkurs ehlon qilib hammani o'z shartlari bilan tanishtiradi. SHunga asosan konkursda ishtirok etuvchi firmalar, konsortsiumlar yoki korxonalar o'z takliflarini – tenderlarini xaridor, buyurtmachiga yuboradi. Tenderni injineriing firmalari hujjatlashtiradi.

Fan-texnika taraqqiyotining muhim anhanaviy yo'nalishlaridan biri ishlab chiqarishni elektrlashtirishdir. Elektrlashtirish deganda elektr energiyasini yetarli darajada ishlab chiqarish, uni kerakli joylarga uzatish va undan keng foydalanish jarayoni tushuniladi. Uning moddiy asosini "Elektroenergetika" tarmog'i tashkil etadi. U elektr energiyasi ishlab chiqaradigan jihozlarni (elektrostantsiyalarni), iste'molchilarga uni yetkazib beruvchi jihozlarni (podstantsiyalarni) va elektr uzatkichlarni o'z ichiga oladi.

Elektr energiyasi har turli stantsiyalarda ishlab chiqariladi:

- suv bilan ishlaydigan elektr stantsiyalar (GESlar);
- issiqlik elektrostantsiyalari (GRESlar);
- atom elektrostantsiyalari;
- quyosh elektrostantsiyalari;
- shamol va boshqa elektrostantsiyalar.

Ekspertlarning dalolat berishlaricha, kelgusi yuz yillikning o'rtalarida sayyoramizda energiya ishlab chiqarish hozirgi darajadan o'n baravar ortadi. Bunday o'sishni qayta tiklanmaydigan organik yoqilg'i yordamida ta'minlash mumkin emas. SHu sababli energetika muammosi eng jiddiy jahonshumul muammolardan biriga aylanmoqda.

Hozirgi vaqtda jahon energetikasi asosan organik yoqilg'idan foydalanishga asoslanadi. Umuman energetika balansida neftg' va gazning ulushi taxminan 50 foizni, ko'mir 35 foizni tashkil etadi va atigi 15 foizi atom elektrostantsiyalari, gidroenergetika va boshqa manbalar ulushiga to'g'ri keladi. Biroq insonning energetika iste'moli shu qadar tez surhatda o'smoqdaki, organik yoqilg'i kabi anhanaviy energetika resursalrining zahirolari navbatdagi yuz yillikdayoq yetarli bo'lmay qoladi. SHu sababli insoniyat oldida yangi energiya manbalarini egallashdek dolzarb vazifa turibdi. Hozirgi paytda quyosh, atom (og'ir elementlarning bo'linishi) va yadro energetikasi (engil yadrolarni termoyadroviy sintez qilish) ana shunday manbalar hisoblanadi.

Er sathiga yetib keladigan quyosh energiyasining umumiy miqdori insoniyat ehtiyojlarini qondirish uchun batamom yetarlidir. Buning yana bir afzalligi, ancha arzonga tushadi.

Olimlarning hisoblariga qaraganda, XXI asrning o'rtalariga borib, butun dunyoda jon boshiga elektr iste'mol qilish 3-4 baravar ortadi. Buni qanday ta'minlash mumkin? Organik yoqilg'ini ishlab chiqarishni kamaytirish kerakmi yoki yo'qmi? Albatta, bu savolga javob topish kerak bo'ladi. Bu muammoni hal etish olimlar va mutaxassislar oldiga katta vazifalar qo'yadi.

Atom energetikasining afzalliklari va kasofati to'g'risida ikki og'iz so'z. AESlarning yemirilishi juda murakkab vaziyatni keltirib chiqaradi. Avariya paytida radioaktiv moddalar ajralib chiqa boshlashi katta hududning radioaktiv zararlanishiga olib kelishi mumkin. SHunday qilib AESlarni barpo etish xavfsizlik bilan bog'liq bo'lgan printsiptial yangi omilni keltirib chiqaradi. Bu omil naqadar jiddiy ekanligini esa CHernobilg' AESidagi avariya yaqqol ko'rsatdi.

Basharti, termoyader energetikasi mavjud bo'lganda u barcha mezonlar bo'yicha yetakchi o'rinni egallagan bo'lur edi. Hali u yaratilgani yo'q, shunchaki talab xolos. Murakkab texnikaviy va texnologik vazifalar hal etilishi lozim.

Elektronizatsiyalash deganda ishlab chiqarish jarayonlarida elektronikadan keng foydalanish, ya'ni ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan axborotni

kompg'yuterlarda yig'ish, o'tkazish va ishlash tushuniladi. Elektronikaning makro va mikro turlari mavjud bo'lib, ular sanoat ishlab chiqarishi boshqaruvida alohida o'rin tutadi. Ayniqsa, lahzali biznes borasida juda qo'l keladi.

Mexanizatsiyalash – bu qo'l mehnatini mashina mehnati bilan almashtirishdir. U ikki xil bo'ladi: a) kichik mexanizatsiyalash; b) kompleks mexanizatsiyalash. U ishlab chiqarishni avtomatlashtirishga zamin tayyorlaydi.

Avtomatlashtirish – bu ilgari odam bajaradigan, boshqarish va nazorat qilish vazifalari asboblari, avtomatik qurilmalar zimmasiga yuklanadigan mashinali ishlab chiqarishni rivojlantirish jarayoni. Avtomatlashtirish jarayonida inson faqat operatorlik vazifasini ado etadi. Sanoat ishlab chiqarishini avtomatlashtirishdan maqsad – mehnat unumdorligini oshirish, mahsulotlar sifatini yaxshilash, ishlab chiqarishning barcha resurslaridan foydalanishning optimal sharoitini yaratish.

Ishlab chiqarishni avtomatlashtirishning uch turi, ya'ni qisman (ayrim ishlab chiqarish operatsiyalarinigina avtomatlashtiradigan), kompleks va to'la xillari mavjud.

Bugungi kunda kompg'yuter va axborot texnologiyalari, telekommunikatsiyalar tarmoqlarini, ma'lumotlar uzatishni, Internet xizmatlariga kirib borishni rivojlantirish va zamonaviylashtirish respublikamizda ustuvorlik kasb etmoqda. Bu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tomonidan 2002 yilning 30 mayida imzolangan «Kompg'yuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot – kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida»gi Farmon alohida ahamiyatga molikdir. Ushbu hujjatga muvofiq Respublikada kompg'yuterlashtirish va axborot – kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish sohasidagi vazifalarni Muvofiqlashtiruvchi Kengash tuzilgan. Bu kengash zimmasiga mazkur sohani rivojlantirishning zamonaviy xalqaro tendentsiyalar va mamlakatni ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirish strategiyasiga mos keluvchi ustuvor yo'nalishlarini belgilash, bu borada dasturlar, loyihalar, mehyoriy – huquqiy hujjatlarning ishlab chiqilishi hamda ekspertizadan o'tkazilishini tashkil etish, malakali kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash, jumladan, mutaxassislarni chet

ellarda o'qitish borasidagi ishlarni muvofiqlashtirish kabi muhim vazifalar yuklatilgan.

Unda «... real iqtisodiyot tarmoqlarida, boshqaruv, biznes, fan va tahlim sohalarida kompg'yuter va axborot texnologiyalarini keng joriy etish, turli aholi qatlamlarining zamonaviy kompg'yuter va axborot tizimlaridan keng bahramand bo'lishlari uchun shart-sharoitlar yaratish ...» belgilab qo'yilgan.

O'zining axborot-kommunikatsiyalar texnologiyalari infratuzilmasini shakllantirgan mamlakatlargina global iqtisodiyotga kirib borishi mumkin. SHuning uchun ham ko'pgina mamlakatlar zamonaviy ishlab chiqarish yoki axborot – kommunikatsiyalar texnologiyalarini keng ko'lamda qo'llashga qaror qildilar. CHunki ular qo'shimcha ish joylarini tashkil etish va xodimlarni qayta tayyorlashda chet el investitsiyalarini jalb etadigan «yadro» bo'lib xizmat qiladi.

Sanoati rivojlangan mamlakatlar axborot – kommunikatsiyalari bozorini tahlil etish shuni ko'rsatadiki, ushbu texnologiyalardan keng miqyosda foydalanish iqtisodiy o'sish, mehnat unumdorligi va sifatini yuksaltirish, aholi bandligini ta'minlash hamda jahon bozori bilan kechadigan integratsiya jarayonlarini tez surhatlarda amalga oshirishga katta imkoniyat yaratib bermoqda. Ushbu anhanalarni mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida ham kuzatish mumkin.

O'zbekistonda axborot – kommunikatsiyalar bozori shakllanishining barcha huquqiy va mehyoriy hujjatlari mavjud. Izchillik bilan rivojlanib borayotgan ushbu tarmoqqa chet el sarmoyalarini jalb qilish va qo'shma korxonalar ochish uchun barcha shart – sharoitlar yetarli. Ana shu shart – sharoitlardan sanoat ishlab chiqarishida keng foydalanish uning samaradorligini oshirishga katta imkoniyatlar yaratib beradi.

Ximiyalashtirish – bu ishlab chiqarishning hamma sohalarida ximiya fanining barcha yutuqlaridan keng foydalanish. Ishlab chiqarishning barcha jarayonlariga ximik materiallarni, xomashyo va materiallarni qayta ishlashning ximik usullarini joriy etishdash iboratdir. Ximiyalashtirish yordami bilan oldindan belgilangan

xususiyatli xomashyo materiallarni tayyorlash mumkin. Masalan, bo'yoq va laklar, sintetik kauchuk, sintetik tola, plastmassalar va h.k.

O'zbekiston Respublikasi juda katta fan-texnika salohiyatiga ega. Bu yerda O'zbekiston FA va 400 dan ortiq ilmiy- tadqiqot muassasi tashkiloti bo'lib, ularda fan-texnika taraqqiyotining fundamental va amaliy muammolari tadqiq qilinadi, xususan, sanoat ishlab chiqarishiga uning ilmiy-texnika bazasini mustahkamlash borasida ilmiy va amaliy yordam ko'rsatiladi.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston sanoatiga xorijiy mamlakatlarning fan va texnika sohasidagi tajribalarini olib kelish hamda ularni joriy etish masalasiga juda katta e'tibor berilmoqda. Keng ko'lamda globallashuv jarayoni kechayotgan bugungi kunda olimlarning yutuqlari tijoratlashib bormoqda va hozirgi paytda dunyo bozoridagi eng qimmat mahsulot turlaridan biriga aylanmoqda.

3.2. Sanoat korxonalarida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish va ularning samaradorligini oshirish yo'llari

Rivojlanayotgan bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning iqtisodiy strategiyasi uzoq vaqtga mo'ljallangan fundamental maqsadlarni o'rta qo'yish bilan bir qatorda, bu maqsadlarga erishish vositalari, yo'llarini belgilashni ham o'z ichiga oladi. Bular orasida ishlab chiqarish samaradorligini to'xtovsiz oshirib borish asosiy o'rinda turadi.

O'zbekiston davlatining qudratini mustahkamlash, aholining moddiy va mahnaviy nehmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini to'laroq qondirish, kelajakda esa – ularni mo'l-ko'l yaratish, iqtisodiy va ilmiy-texnika sohasida eng rivojlangan davlatlar qatoridan joy olish ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga bevosita bog'liqdir.

Ishlab chiqarishini erkinlashtirish va bu tarmoqda islohotlarni chuqurlashtirish samaradorlikni oshirishning asosiy yo'nalishi hisoblanadi. Ishlab chiqarishi samaradorligini oshirishning hal qiluvchi yo'llaridan yana biri fan-

texnika taraqqiyotini jadallashtirishdir. Texnik va texnologik omil mehnat unumdorligini o'stirishning kamida uchdan ikki qismini ta'minlaydi.

Ma'lumki, iqtisodiy taraqqiyotning turli bosqichlarida texnika taraqqiyotining xarakteri va mazmuni o'z xususiyatlariga ega bo'ladi. Masalan, bozor iqtisodiyotiga o'tish natijasida fan-texnika taraqqiyoti undagi miqdoriy o'zgarishlargagina emas, balki ko'proq sifat o'zgarishlariga qaratiladi. Umuman, samaradorlik iqtisodiyotdagi sifat o'zgarishlari bilan bog'liqdir, bu talab fan-texnika taraqqiyotiga ham to'liq joriy etiladi.

Ishlab chiqarishning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini yuqori darajaga ko'tarishda inson omilining roli beqiyosdir. Insonlarning tashabbusi, kuch-g'ayrati, jonli ijodiyoti har qanday taraqqiyotning kudratli kuchi va eng muhim manbai hisoblanadi. SHu sababli ham insonni jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi deb aytadilar. U barcha yangiliklarni, shu jumladan, yangi, ilg'or texnika-texnologiyalarni yaratadi, ishlab chiqarishni oqilona tashkil etadi, ilmiy va amaliy kashfiyotlar qiladi. Barcha ishlab chiqarish vositalari inson mehnati bilan harakatga keltiriladi, foydali narsalar hosil qilinadi. Biroq inson faqat asosiy ishlab chiqaruvchi kuchgina emas, shu bilan birga ishlab chiqarish va boshqa ijtimoiy munosabatlarning subhekti hamdir. Odamlar faoliyati shu munosabatlar orqali ruyobga chiqadi. Bu faoliyat yo'nalishi va natijalari xodimning o'z faoliyatida qanday o'y-fikrlarga, tasavvurlarga, maqsadlarga, hayotiy yo'l-yo'riqlarga, muddaolarga va psixologik ehtiqodlarga amal qilishiga bog'liq. SHu sababli inson omilining mohiyati, ahamiyati va mazmuni tahlil etilganda gap faqat inson haqidagina emas, balki avvalo inson yashab, mehnat qilayotgan ijtimoiy munosabatlarning butun tizimi bilan belgilanuvchi ijtimoiy sifatlar, faoliyatni rag'batlantiruvchi omillar va muddaolar haqida borishi kerak.

Keyingi yillarda iqtisodiyotimizda yuz berayotgan jiddiy tarkibiy va sifat o'zgarishlariga alohida e'tibor qaratildi. Ta'kidlash kerakki, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va bu sohalarni


diversifikatsiya qilishga qaratilayotgan ulkan e'tibor eksport hajmi, uning tarkibi va sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Mamlakatimiz korxonalarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar raqobatdoshligini oshirish orqali milliy iqtisodiyot raqobatdoshligini darajasini ko'tarishga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan, yuqorida sanab o'tilgan kamchiliklarni bartaraf etish uchun Vazirlar Mahkamasi oldiga bir qator masalalarni (3.2.1-rasm) hal etish vazifasi qo'yildi.

Avvalambor, mahsulot tannarxini 10-15 foizga pasaytirish yuzasidan har bir korxona bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni ko'zda tutadigan dastur ishlab chiqish vazifasi qo'yildi.

Bu vazifani amalga oshirish korxonalarda mahsulot tannarxini kamaytirish bo'yicha mavjud rezervlarni aniqlash va ishga solish, ishlab chiqarishni material va energiyani tejaydigan zamonaviy uskunalar bilan qurollantirish, mavjud quvvatlardan to'liq foydalanish, xomashyo va materiallar hamda yordamchi tarmoqlar xizmatlari narxinin asossiz o'sishini iqtisodiy yo'llar bilan cheklash, sanoat kooperatsiyasini kuchaytirish va xorijdan olib kelinayotgan xomashyo, materiallar va butlovchi qismlarni ishlab chiqarishni mahalliyashtirish kabi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur.

Respublikamizda qayta ishlash sanoatining, ayniqsa qishloq xo'jalik xomashyosini qayta ishlash tarmoqlarining rivojlanishi darajasi mamlakatimizda mavjud sanoat xomashyosini to'liq va chuqur qayta ishlash orqali raqobatdosh, yuqori likvidli mahsulotlar ishlab chiqarish uchun yetarli emas.



3.2.1-rasm. Iqtisodiyot raqobatdoshligini oshirish borasida kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar.

Mahsulotni tashqi bozorlarga olib chiqish uchun raqobatchilar, iste'molchilar, mahsulot eksport qilinayotgan mamlakatning qonunchiligi to'g'risida axborot ko'magini berish, davlatlararo kelishuvlarga ko'ra mamlakat korxonalari uchun xorijiy davlatlarda eng ko'p qulaylik rejimini yaratish, bozor va ishlab chiqarish infratuzilmalarini (banklar, transport tizimi va h.k) rivojlantirish, mahsulot reklamasiga ko'maklashish kabi chora-tadbirlar ham eksport qiluvchi korxonalar raqobatdoshligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Poytaxtimiz va viloyat markazlarida har yili o'tkazib kelinayotgan sanoat yarmarkalari, mamlakatimizning xalqaro savdo-sanoat yarmarkalaridagi ishtiroki mahsulot eksport qiluvchi korxonalarimizga o'z mahsulotlarini reklama qilish, xaridor va sheriklar izlab topish imkoniyatini kengaytirmoqda, reklama xarajatlarini tejash imkonini bermoqda.

Ushbu ijobiy tajribadan kelib chiqib, eksport yarmarkalarini o'tkazishni kengaytirish, yirik eksportchi korxonalarimizni nufuzli xalqaro yarmarkalarda ishtirok etishga jalb etish bo'yicha ham Hukumat qarorini qabul qilish Prezidentimiz tomonidan alohida vazifa etib belgilandi.

SHu bilan birgalikda, sanoat korxonalarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning asosiy yo'llaridan yana biri mavjud ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishni yaxshilashdir. Ulardan samarali foydalanish masalasi ayniqsa, bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida yanada dolzarblashadi. SHuning uchun ham O'zbekistonda ulardan har taraflama unumli foydalanishga alohida e'tibor berib kelinmoqda.

Ishlab chiqarish quvvatlaridan qanchalik to'la va unumli foydalanilsa, ko'proq mahsulot ishlab chiqariladi, mahsulotning tannarxi kamayadi, korxonaning foydasi va samaradorligi oshadi.

Asosiy fondlardan va ishlab chiqarish quvvatidan foydalanishni yaxshilash ijtimoiy ishlab chiqarishning samaradorligini oshirishga, kapital mablag' sarflamay qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarishga, mehnat unumdorligi va samaradorlik o'sishiga hamda mahsulot tannarxini kamaytirishga imkon yaratadi. SHuning uchun ham hozirgi sharoitda respublikada ulardan unumli foydalanishga katta e'tibor berilmoqda.

Korxona asosiy fondlari va ishlab chiqarish quvvatlari samaradorligini oshirishda korxonalarda texnologik uskunalarning ish smenasini ko'paytirish katta ahamiyatga egadir.

Uskunalaridan intensiv foydalanishni yaxshilash uchun korxonaning texnika va texnologiyasini takomillashtirish, mashinalarning ish tezligini oshirish, metall

quyishga, ximiyaviy jarayonlarga sarflanadigan vaqtni qisqartirish, shuningdek, kadrlar malakasining texnikaviy saviyasini oshirish, korxonalarni yiriklashtirish, ixtisoslashtirish va hamkorlik asosida mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etish zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Sanoat milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmog'i hisoblanadi va ijtimoiy ishlab chiqarishni rivojlantirishda, aholining turmush-darajasi oshirishda uning ahamiyati beqiyosdir.

O'zbekiston sanoati fan-texnika taraqqiyoti, boshqaruvi va tashkil etilishining takomillashuvi va kadrlar salohiyatining yuqori darajaga ko'tarilishi hamda xorijiy investitsiyalarning ko'plab jalb etilishi tufayli izchil rivojlana boshladi. Mustaqillik yillarida uning tarmoq strukturasi tubdan o'zgardi va natijada yangidan-yangi tarmoqlar yuzaga keldi.

Sanoat juda ko'p tarmoqlardan iborat bo'lib, ularning har biri korxonalar yig'indisidan tashkil topadi. Tarmoq hosil bo'lishi uchun korxonalar bir necha umumiy xususiyatlarga ega bo'ladilar.

Sanoat tarmoqlari o'rtasidagi ishlab chiqarishning o'zaro aloqadorligi va ularning takror ishlab chiqarish jarayonida yuzaga keladigan miqdoriy nisbatlari tarmoq strukturasi tashkil etadi. U sanoat taraqqiyotida ruy beradigan texnika va texnologiya rivojining darajasi, ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlar bilan bog'liq ravishda o'zgaradi.

Turli sanoat tarmoqlari o'rtasidagi ishlab chiqarish aloqalari o'zaro mahsulot almashish, tajribalarni o'rganish bilan tavsiflanadi.

Sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni sotish jarayoni unda kuchli raqobat bo'lishi bilan xarakterlanadi. Bunday raqobatning bir necha ko'rinishlari bor. Avvalo bu - assortimentni rejalash va kompaniya tomonidan taklif etilayotgan nomenklatura tarkibini belgilab beruvchi yangi namunalarni ishlab chikishdagi raqobatdir. Bundan tashkari, bozorda tovarlar baholari raqobatini, reklama dasturlarini sotish va realizatsiya qilish sohasidagi raqobatlarini keltirish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishini bajarish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Ishlab chiqarishning iqtisodiy-ijtimoiy samaradorligi muhim kategoriya sifatida, umuman olganda ishlab chiqarish jarayonining samaradorligini, erishilgan natija bilan jonli va buyumlashgan mehnat o'rtasidagi nisbatlarni o'rganadi. Sanoat ishlab chiqarishi samaradorligining doimiy oshib borishi ob'ektiv zarurat hisoblanadi va milliy daromadning keskin ko'payishiga imkoniyat yaratib beradi. Sanoat ishlab chiqarishi samaradorligining darajasi turli xil o'zaro bir biri bilan bog'liq omillar ta'siri ostida shakllanadi.

2. Sanoatda ilmiy-texnika bazasi – bu uning ilmiy salohiyati va barcha mehnat vositalarining majmuidir. Bu salohiyat eng avvalo sanoatni, so'ngra, xalq xo'jaligining boshqa sohalari rivojini ta'minlaydi. Sanoat sohasida fan-texnika taraqqiyotini anhanaviy yo'nalishlariga ishlab chiqarishni elektrlashtirish va elektronizatsiyalash, mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish, ximiyalashtirish va yangi (progressiv) texnologiyalarni joriy etish kiradi.

3. xususiy va davlat monopoliyasini cheklash, savdo qoidasini asossiz buzishlarni tahqiqlash, iqtisodiy kuchlarni haddan tashqari markazlashuvini va ishlab chiqarish, sotish, narx, texnologiya rivojlanishini asossiz cheklashni oldini olish, sanoat korxonalari erkinliklarini oshirish vositasida qulay raqobat sharoitlarini vujudga keltirish;

4. korxonalarni soliqqa tortishda soliqqa tortish bazasini qisqartirish amaliyotidan foydalanish va shu asosda tavakkalchilikni pasaytirish hamda korxonalari faoliyatining barqarorligini ta'minlashga yordam berish;

5. soliq qonunchiligining barqarorligini ta'minlash va soliq sohasida kutilayotgan o'zgarishlar to'rtisida ishlab chiqarish sub'ektlarini oldindan xabardor qilish amaliyotini yo'lga qo'yish;

6. ishlab chiqarish faoliyatini moliyalashtirishda turli xil byudjetdan tashqari fondlar faoliyatini rivojlantirish hamda kredit ittifoqlarini tashkil qilish;

7. tarmoq korxonalarining davlat buyurtmalarini bajarish ishlariga kengroq jalb etish va bu sohada ularga imtiyozlar taqdim etish, tarmoq korxonalarga boshqaruv, texnik axborot va maslahat xizmatlari ko'rsatishning aniq mexanizmini

ishlab chiqish va shu maqsadda oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari qoshida turli xil kurslar, axborot markazlari tashkil etish.

8. O'zbekiston Respublikasi, shu jumladan Namangan viloyati bu borada o'zining juda katta salohiyatiga ega. Mamlakatning izchil va barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun ana shu salohiyatdan to'la-to'kis foydalanish va fan-texnika taraqqiyotini yanada tezlatish zarur.

9. Sanoat sohasida ajoyib yutuqlar bilan birga bir qator kamchiliklar va hal etilmagan muammolar mavjud. XXI asrda bu muammolarning yechimini topish uchun O'zbekistonda, xususan Namangan viloyatida barcha imkoniyatlar, ya'ni juda katta moddiy, mehnat, moliyaviy va intellektual resurslar mavjud. Ana shu resurslardan oqilona foydalanish asosida O'zbekistonning juda qudratli va samarali sanoatini yanada yuqori darajaga ko'tarish mumkin.

10. Sanoat rejasini tuzish eng murakkab ishlardan biri hisoblanadi. Chunki bunda taraqqiyotning barcha tomonlarini oldindan ko'rish, ya'ni bashorat qilish hamda bu taraqqiyotni ta'minlovchi iqtisodiy va texnik salohiyatning samarali variantlarini qidirib topish kerak bo'ladi. Mustaqillik yillarida rejalashtirishni takomillashtirish borasida anchagina ishlar amalga oshirildi. Lekin xalq xo'jaligini, jumladan, sanoatning rejali, mutanosib rivojlanishining bir qator muammolari hali o'z yechimini topgani yo'q. Shu sababli bu sohada ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish va demokratik davlat, bozor iqtisodiyotining talablariga javob beradigan rejalashtirishni yaratish zarur.

11. Ma'lumki, muntazam ravishda raqobatchilarning soni o'zgarib turishi mumkin. Ular sonining ko'payishi, raqobat kuchayib, foyda miqdori kamayib borishiga olib keladi. Raqobatchilar sonining ancha ko'payishi faoliyatining dastlabki bosqichlarida katta sarf-xarajatlar qilishni talab etmaydigan sohalar uchun ayniqsa xarakterlidir. Bunday hollarda bozori juda chaqqon bo'lib borayotgan tovarlarning paydo bo'lishi sohaga yangi ishlab chiqaruvchilarni jalb etishi mumkin. Darvoqe, ularning bir qismi qaror topib, oyoqqa turib olish davridagi qiyinchiliklarni yenga olmay qoladi.

12. Yirik mablag'larni jalb etishni talab etadigan sohalarda raqobatchilar sonining ortishi uncha katta bo'lmaydi. Oyoqqa turib olish davri o'tganidan keyin bozorning yangi qatnashchilari bozorlarni pasaytirish hisobiga o'z tovarlarini o'tkazishga harakat qiladilarki, bu narsa umumiy savdo-sotiq hajmiga ham, tovarlarni dastlab yaratgan va sotishga boshlagan tomon yalpi foydasi darajasiga ham yomon ta'sir qiladi. Natijada, kompaniya yangi tovarni bozorga chiqarishi bilanoq darrov uni takomilashtirishga kirishishga va kuchli raqobat yuzaga keladigan bo'lsa, shu tovarning o'rnini bosa oldigan yangi buyumlar chiqarish yo'llarini izlashga majbur bo'ladi.

13. Xodimlarning moddiy manfaatdorligi tamoyilini hayotga muntazam ravishda, ya'ni izchillik bilan tatbiq etish sanoat taraqqiyotining muhim shartlaridan biri hisoblanadi. SHu sababli sanoat ishlab chiqarishida mehnatga haq to'lashni yaxshilash va uning eng progressiv usullarini qo'llashga alohida e'tibor berish kerak bo'ladi.

14. Kadrlarning bilim, ilm va malaka darajasi mamlakat ishlab chiqarish kuchlarining eng muhim elementi, ya'ni unsuri hisoblanadi. Malakali xodimlar tayyorlash, xodimlar malakasini oshirish, qayta tayyorlashga jiddiy e'tibor qaratish lozim.

Istiqbolda sanoat korxonalaridagi mavjud muammolarni yechish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- Sanoat korxonalarida ishlatiladigan dastgohlarni va qo'shimcha qismlar ishlab chiqarishni mamlakatimizda yo'lga qo'yish va ularni ishlab chiqarishni jaxon standarti darajasiga ko'tarish, shu orqali raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish.

- Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqaradigan yangi korxonalarni barpo etish va ularda ilg'or texnologiyalarni qo'llash orqali eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish hamda shu orqali sanoat korxonalari o'rtasida raqobat muhitini rivojlantirish.

- Mamlakatimizdagi sanoat korxonalarining jaxon bozoridagi mavqeini ko'tarish. Buning uchun yuqorida aytilgandek, korxonalar o'rtasida raqobatni yanada rivojlantirish darkor.

- Sanoat korxonalarida jadal surhatda modernizatsiya ishlarini boshlab yuborish, ularni yangi texnika va texnologiyalar bilan jihozlash.

- Sanoat korxonalari rivoji uchun investitsiyalarni qidirib topib va ularni ishlab chiqarishda qo'llash, investitsiya mablag'larining samaradorligini oshirish, ular hisobiga sanoat korxonalarida mehnat unumdorligini oshirish.

- Sanoat korxonalariga kapital qo'yilmalar yo'naltirishni rag'batlantirish.

- Eksport va import o'rnini bosuvchi eksportbop mahsulotlarni ishlab chiqarish yo'lidagi har handay harakatni rag'batlantirish. Sanoat korxonalarining tashqi bozorga chiqishlari uchun zarur axborot va marketing bo'yicha ma'lumotlar bazasini yaratish va takomillashtirish.. Kichik korxonalarga va eksport sohasida tajribasi yetishmagan korxonalarga mahsulotlar va xizmatlarni eksport qilishda ko'mak berish.

- Tashkil etilayotgan kichik korxonalar tarmog'iga har tomonlama yordam berish, qo'llab quvvatlash va shu orqali ularga ham xuddi yirik sanoat korxonalari uchun yaratilgan imkoniyatlardek yangidan-yangi imkoniyatlarni ochish.

Yuqoridagi vazifalarni amalga oshirish sanoat korxonalarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifati va raqobatbardoshligini oshirishga hamda ular faoliyatini rivojlantirishga olib boradi, deb hisoblaymiz. Natijada, korxonalarda foydalilik darajasi yuksalib boradi, xodimlarning mehnatdan manfaatdorligi ortadi va korxona murakkab sharoitlarda ham yashab qolishga va o'z faoliyatini davom ettirishga erishadi hamda mamlakatimiz iqtisodiyotining rivojiga o'z hissasini qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi., -T.: O'zbekiston, 2001 yil.
2. O'zbekiston Respublikasining “Korxonalar to'g'risida”gi Qonuni. Qonun va qarorlar to'plami., -T.: O'zbekiston, 2005 yil.
3. Karimov I.A. “2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir”. 2014 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilda iqtisodiy isloxlarni chuqurlashtirishning muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Maxkamasining Majlisidagi mahruzasi, // Xalq so'zi, 2015 yil 17 yanvar.
4. Karimov I.A. “2014 yil yuqori o'sish surhatlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi”. 2013 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilda iqtisodiy isloxlarni chuqurlashtirishning muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Maxkamasining Majlisidagi mahruzasi, // Xalq so'zi, 2014 yil 17 yanvar.
5. Karimov I.A. “2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi”. 2011 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2012 yilda iqtisodiy isloxlarni chuqurlashtirishning muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Maxkamasining Majlisidagi mahruzasi, // Xalq so'zi, 2012 yil 19 yanvar.
6. Karimov I.A. “Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir”. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi mahruzasi // Xalq so'zi, 2010 yil 28 yanvar.

7. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. I.A.Karimov. – T: O'zbekiston, 2009. – 56 b.
8. Karimov I.A. “Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi”. 2008 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi mahruzasi // Xalq so'zi, 2009 yil 14 fevral.
9. Karimov I.A. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. T.: O'zbekiston, 2009. – 24 b.
10. Karimov I.A. «Bizning bosh maqsadimiz-jamiyatni demokratlashtirish va yangilash,mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir». O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatning qo'shma majlisidagi mahruza. 2005 yil 28 yanvar.
11. Karimov I.A. “O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. T., “O'zbekiston”, 1995.
12. Karimov I.A. O'zbekiston - bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li. T., “O'zbekiston”, 1993.
13. “Monopoliyaga qarshi ishlarni tartibga solish va raqobatni rivojlantirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” : O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 fevraldagi PF-4191-son Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami – 9 son – 2010- 9 mart
14. Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi tug'risidagi Nizom. -T.: 1999, 5 fevral.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida. 2008 yil 18 noyabr, PF-4053-son.

16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularni barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida. 2008 yil 28 noyabr, PF-4058-son.
17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. 2009 yil 20 yanvar, PQ-1041-son.
18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoyishi. Iqtisodiy nochor korxonalarni tijorat banklariga sotish tartibini tasdiqlash to'g'risida. 2008 yil 19 noyabr, F-4010-son.
19. Vahobov A., Qosimova G. Davlat moliyasini boshqarish. O'quv qo'llanma. - T.: KITOB-MOLIYA. 2008.
20. Maxmudov E.X. «Korxona iqtisodiyoti» T., O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi. Adabiyot jamg'armasi Uyushmasi nashryoti, 2004 yil.
21. Zaynutdinov SH.N., va boshqalar «Iqtisodiyot asoslari» T., Moliya, 2001
22. Tursunxo'jaev P.M. «Korxonalarda xizmat ko'rsatish va rejalashtirish». -T. : O'zbekiston 1997.
23. Пезнев В.Л. «Тактика и стратегия управления фирмой». -М., Фан Пресс, 1997.
24. Ortiqov A. «Sanoat iqtisodi» fanidan mahruza matni T.: TDIU, 2006.
25. SHodmonov SH., Alimov R., SHeraliev J. «Iqtisodiyot nazariyasi». T.: Moliya, 2000.
26. Зайцев Н.А. Экономика промышленности предприятия. М., «ИНФРА-М», 1996.
27. Верст И., Равентоу П.. Экономика фирмы. Учебник. М. «Высшая школа», 1994.
28. Финанси предприятий. Учебное пособие. Коллектив авторов под редакцией Е.И.Бородиной, М., «ЮНИТА», 1995.

29. Экономика предприятия. Под ред. проф. Волкова О.И., М., «ИНФРА-М», 2000.
30. Экономика предприятия. Под ред. проф. В.П. Грузинова, М., «ЮНИТИ», 1998.
31. Макконелл К.Р. Брю С.Л, Экономика: принципы, проблема и политика. Перевод с англ. Том 1, 2, М., Республика, 1992.
32. Лебедев О.Т., Каньковская А.Р.. Основы менеджмента. Учебное пособие Санкт-Петербург, Изд. дом «МиМ», 1997.
33. Савицкая Г.В. Анализ хозяйственной деятельности предприятия. Минск, «Новое знание», 1999.
33. Свиридов О.Ю. Финансы, денежное обращение, кредит. Экспресс справочник для студ. вузов. –М.: ИКЦ Март, Ростов н/Д. изд. Центр Март, 2004. – 179 стр.
34. www.referat.uz sayti.
35. www.lex.uz
36. www.minfin.ru
37. www.mf.uz
38. www.byudjet.uz